

SOHIBQIRON YULDUZI

ИЖТИМОИЙ-ТАРИХИЙ, ИЛМИЙ ВА ОММАБОП ЖУРНАЛ

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:

академик Акмал Саидов
академик Анатолий Сагдуллаев
академик Дилором Юсупова
Сирожиiddин Саййид
проф. Абдурахим Эркаев
проф. Қаҳрамон Ражабов
проф. Юлдуз Эргашева
проф. Баҳодир Эшов
филол.ф.д. Нафас Шодмонов
Тўлқин Ҳайит
т.ф.д. Г.Мўминова
проф. Шокир Гафоров
филол.ф.д. Ҳўжамурод Ҳабборов
филол.ф.д. Дамин Тўраев
т.ф.д. Акрам Ҳасанов
проф.Камолiddин Ғаниев
т.ф.н.доц. Матлуба Тўраева
т.ф.д.Фахриддин Раҳмонов
т.ф.ф.д.доц. Саҳодат Муртазаева
т.ф.ф.д. Раъно Тўхтаева

Бош муҳаррир:

Очил Бўриев

Намр учун масъуллар:

Равшан Тўхтамишев

Илҳом Тоғасев

Саҳифаловчи:

Баҳодир Мусаев

МУАССИС:

SOHIBQIRON SHULASI M.CH.J.
Қашқадарё вилоят матбуот ва ахборот
бошқармасида 2012 йил 12 мартда
14-076 рақами билан рўйхатга олинган.
Журнал йилда 4 мартаба чоп этилади.
Журналдан кўчирма олинганда манба
қайд этилиши шарт.

Манзилимиз:

Қарши шаҳри, Мустақиллик шоҳ кўчаси,
2-уй. Телефон: 91.466-80-32
Теришга 08.04.2024 йилда берилди.
Босишга 02.05.2024 йилда рухсат
этилди. 02.05.2024 йилда босилди.
Бичими 70x100 1/16.15,04 босма табақ.
Адади 30 нусха. Бўртма №157
Журнал «Photo Express» ишлаб чиқариш
корхонаси босмахонасида чоп этилди.

Босмахона манзили:

Қарши шаҳри Мустақиллик шоҳ кўчаси, 22-уй.

Электрон манзилимиз:

sohibqiron_jurnali@mail.ru

2024 йил №2 сон (55)



2024 йил «Ёшлар ва бизнесни
қўллаб-қувватлаш йили»

Журнал таниқли шоир, маънавият
жонкуяри (марҳум) Исмоил Тўхтамишев
ташаббуси билан ташкил этилган.
2010 йилдан чоп этилади.



TADQIQOT

SOVET HOKIMIYATINING DASTLABKI YILLARIDA VAQF MULKLARINING AHVOLI

Boltaboyev Muxammadjon Axmadjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti

Kalit so'zlar: Vaqfi xayriya, vaqfi avlodiy, Turkiston ijroiya qo'mitasi, muftiy, said, mutavalli, shayx, masjid, madrasa, qorixona, xonaqoh, islom fiqhi, shariat sudlari, jome masjidi, Usmon Qur'oni, yer-suv islohoti, uyez, imom.

O'rta asrlardan boshlab ming yillar davomida islom dini va uning roli biz yashab turgan mintaqada ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy hayotda muhim o'rin egallab kelgan. Tarixiy jarayonlar juda keskin kechgan XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ham Buxoro amirligi, Xiva, Qo'qon xonliklarida yer va mulklarining katta qismi diniy muassasa va tashkilotlarga tegishli bo'lib, vaqf yerlari va mulklari nomini olgan. Shuningdek, muftiy, said, xo'ja, a'lam, pir, mutavalli, eshon, shayx, so'fi singari diniy tabaqalar ham kattagina mulk egalari bo'lgan. 1917-yilga qadar Turkistondagi musulmon muassasa va tashkilotlarida xizmat qilayotgan diniy shaxslar va ulamolarning madrasa, masjid, qorixona, xonaqoh kabilardagi soni ham katta miqdorni tashkil qilgan. XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligi hududida 268 ta madrasa, 1498 ta katta, 11 230 ta kichik xajmdagi masjidlar mavjud bo'lib, ularda xizmat qilayotgan imomlarning o'zi 12 499 nafarni tashkil etgan. Shuningdek, Farg'ona viloyatining o'zida 236 ta qorixonalar faoliyat yuritgan.

1917-yilning oktabr oyi oxirida Rossiya imperiyasining poytaxti Petrograd da ro'y bergan inqilobiy to'ntarish va Muvaqqat hokimiyatning ag'darilishi, chekka o'lkalardan biri bo'lgan Turkistondagi siyosiy jarayonlarga ham ko'p o'tmay o'z ta'sirini o'tkazdi. Toshkent soveti 1917-yil 1-noyabrda Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilganligini e'lon qildi. O'sha kuni sovetlar Termiz va Kattaqo'rg'onda, 25-noyabrda Yangi Buxoro, Kogonda, 28-noyabrda Samarqandda, 7-dekabrda Namanganda hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Toshkent ishchi-soldat va dehqon deputatlari Ijroiya Qo'mitasi tomonidan hokimiyatning olinishi, o'lkada bolshevikcha tartiblarni o'rnatilishiga imkon yaratdi. Bolsheviklar chorizm davridagi mustamlakachilik siyosatini yangicha tarixiy sharoitda davom ettirib, unga mohiyatan amal qildilar. Turkistonda inqilobiy aqidalarga, avvalo, sinfiylik tamoyillariga amal qilinib, diskriminatsiya siyosati yuritildi. Ishchilar sinfi va kambag'al dehqonlardan tashqari boshqa barcha tabaqalar reaksion guruhlar deb e'lon qilindi. Jumladan, islom va boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchi Turkiston ahli ham reaksion oqim sifatida qoralanib, ularga qarshi ayovsiz kurash boshlandi.

1917-yil 2-noyabrda: "Rossiya xalqlari huquqlarining deklaratsiyasi" va ushbu



yilning 20-noyabrida "Rosssiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga" murojaatnomasi e'lon qilindi. Unda barcha fuqorolarning tengligi, boshqa xalqlarning esa Rossiya Federatsiyasidan hattoki ajralib chiqishi va mustaqil davlat tuzish huquqi, milliy, diniy imtiyozlar va cheklashlarni bekor qilish kabilar rasmiy ravishda bayon qilingan edi.

Turkistonda bolshevikcha tartiblar o'rnatilgan dastlabki kunlardan oq, hukumat soxta, "dabdabali" deklaratsiyalar e'lon qilish orqali aholini bolshevikcha rejimga ijobiy munosabatda bo'lishini ko'zlagan edi. Sovet hukumati vujudga kelganligining dastlabki kunlarida qabul qilingan ikki tarixiy hujjati aynan shu maqsadga yo'naltirilgan edi.

Turkistonda azaldan maorif va madaniyatning moddiy tayanchi bo'lgan va mutavallilar tomonidan boshqarib kelinayotgan vaqf mulklaridan foydalanish (1918-yildan 1920-yilgacha vaqf mulklari davlat va mahalliy tashkilotlar budjetiga kiritiladi, madrasa, qorixonalar yopib qo'yiladi, shariat asosida ish ko'ruvchi qozilik sudlari tugatiladi) to'xtatib qo'yish, ularni davlat hisobiga musodara qilish siyosati yuritilganligi ham diniy muassasa va tashkilotlar faoliyatiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Islom muassasalari davlat tomonidan beriladigan imtiyozlardan mahrum bo'lgandan, qo'l ostidagi mol-mulklar musodara qilingandan so'ng iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy jihatdan qiyin ahvolga tushib qoldi. Shuning uchun ham ushbu yillarda diniy ulamolar sovet hokimiyatiga qarshi norozilik kayfiyatini ifoda qilar ekan, ular asosan, vaqf mulklari bo'lgan yer, karvonsaroy va savdo rastalari, hunarmandchilik ustaxonalari, xonaqoh, masjidlarni o'z egalariga qaytarishni talab qildilar.

Vaqf mulklari ikkiga bo'lingan bo'lib: 1) Xayriya (Vaqfiy umumiy) - bu mulklar vaqf mulklarining asosiy qismini tashkil qilib, masjid, madrasa, qabriston (avliyolar)ga qarashli bo'lgan. Bu mulklarni asosini yer mulklari tashkil qilib, ushbu vaqf yerlari dehqonlarga ijaraga berilgan. Ulardan keladigan daromad yuqoridagi muassasalarni mablag' bilan ta'minlash, masjidlar qoshidagi boshlang'ich va madarasalardagi oliy ta'lim tizimini moddiy asosi bo'lgan. Voqfiy xayriya mulklariga: do'kon, saroy, bozor, karvonsaroy, tegirmon, hammom, savdo rastalari, musofirxona, xonaqoh, oyjuvoz, nonvoyxona kabilar ham kirgan.

Vaqflarni ikkinchi turi "Vaqfiy avlodiy" bo'lib, bu mulklar said, to'ra, xo'ja, a'lam, mutavalli, so'fi kabi dindor tabaqa vakillariga qarashli bo'lgan. Agrar munosabatlar hukmron bo'lgan Turkiston o'lkasida vaqf mulklari vaqf yer egaligining ta'siri va mavqeyi kuchli bo'lganligi o'z-o'zidan ayon. Sovet tartibotlarining o'rnatish davrida Turkistondagi shafqatsiz to'qnashuvlar tufayli vaqf mulklari ham juda katta zarar ko'rdi. Vaqf yer mulklarida yashab, xo'jalik yuritayotgan minglab dehqonlarning moddiy shart-sharoiti yomonlashib, yerlarni katta qismi o'z salohiyatini yo'qotib, tashlandiq, qarovsiz joylarga aylanib qoldi. Dehqonlarni o'z yeriga qaytarish, Turkistondagi iqtisodiy inqiroz oldini olish maqsadida sovet hukumati nisbatan oyoqqa turib, osudalik o'rnatilgandan keyin vaqflar masalasiga qaytib ish ko'rishga majbur bo'ldi.

1918-1919-yillarda sovet hukumatining joylardagi Ijroiya Qo'mitalari vaqf mulklarini boshqaruvchi mutavallilarning ko'pchiligini vaqf daromadlarini



TADQIQOT

o'zlashtirishlikda ayblab, ularni o'zlariga ma'qul kishilar bilan ommaviy ravishda almashtirish kompaniyasini uyushtirdi. Eski Marg'ilon deputatlari soveti "Yorotaliq" masjidi imomini, hamda "Oqyo'lboy" madrasasi mutavallisini vaqf daromadini shaxsiy foydasiga o'zlashtirishlikda ayblab, 1919-yil 19-iyulda ishdan oladi.

1918-yilning 27-avgust Namangan shahar ijroqo'mi yig'ilishida "Ayritom" masjidi mutavallisi Ismoilxo'ja eshon o'zining "jinoyatlari" ya'ni masjidga kelgan daromadlar va xarajatlar haqida noto'g'ri ma'lumotlar berganligi uchun ishdan olinadi. O'sha yilda "Xolxo'ja eshon" madrasasi mutavallisi Mulla Abduqahhor, "Abduvahobboy" madrasasi mutavallisi Mulla Ashur Rahimov, Shahrixondagi "Sobirxo'ja" masjidi imomi Mulla Sa'dullaxo'ja kabilar ham talon-tarojlikda ayblanib ishdan olinadi.

Arxiv manbalarining ma'lumoticha 1918–1921-yillarda Samarqand, Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarida madrasa va masjidlarning katta qismi vayron qilinib, ular o'z daromad manbadan ajralib qoladi.

Turkiston Respublikasining ma'rifatparvar vakillari va jadidchilik harakatining nomoyondalari 1919–1920-yillarda vaqflarni tiklash va ularni diniy muassasa, tashkilotlar moddiy bazasiga qaytadan aylantirish bilan bog'liq qat'iy fikrlar bildirganlar. 1920-yilning 30-iyunida Turkiston ASSR xalq ta'limi bo'limi boshqaruvchilari qurultoyida Munavvarqori Abdurashidxonov Turkistondagi vaqflar to'g'risida ma'ruza qilib, "Vaqflar diniy va xayriya ehtiyojlari uchungina emas, aksincha, madaniy taraqqiyot va xalq maorifi uchun ham zarurdir. Milliy maktab va madrasalar umumiy ma'lumot beradigan fan va san'atimizning moddiy manbasi vaqflar ekanligiga, ularni faqatgina diniy nuqtai nazardan qarashdan holi qiladi", – deb ma'lumot beradi.

1920-yil 17-noyabrda Turkiston ASSR Markaziy ijroiya qo'mitasi va Xalq komissarlar soveti "Rossiya Federatsiyasi Turkiston Respublikasida yerdan foydalanish haqida" gi 353-sonli Nizomiga asosan vaqf yerlarini davlat tasarrufiga o'tkazish to'g'risidagi qarorini e'lon qiladi. Shu tariqa vaqf mulklari masalasi diniy muassasalar ixtiyoridan butunlay tortib olinadi. Faqat qarorda masjidlarga tegishli bo'lgan vaqf yerlariga vaqtincha yer-suv islohotini o'tkazish jarayoniga qadar tegmaslik uqtiladi.

Turkiston Respublikasi MIQ vaqflarni madrasa va masjidlarga qaytarish va diniy muassasalarni ta'mirlash orqali mahalliy aholini ishonchiga kirish, o'lkadagi hayotni bolsheviklar foydasiga barqarorlashtirish maqsadida, 1922-yilning 20-iyunida 75-raqamli dekretini qabul qildi. Ushbu hujjatda Turkiston Respublikasining uch viloyatida (Samarqand, Farg'ona, Sirdaryo) vaqf yerlarini ularning mulklari bo'lgan do'kon, magazin, karvonsaroy, ombor, bog' uchastkalar kabilarni diniy muassasalarga qaytarish, ulardan keladigan daromadni, madrasa va masjid binolarini tamirlash, bu yerda o'qiyotgan mullavachchalarga hamda xodimlarga sarflash, ular qoshida maktablar ochish kabilar ko'rsatiladi. Ushbu dekretida diniy muassasalar sovet hukumatining yerdan foydalanshi to'g'risidagi qonunchiligi asosida ish ko'rishi, masjidlarning vaqflardan tushgan daromadlari esa to'la holicha masjidga tegishliligi bayon qilingan. Har bir uyezdga madrasa va vaqflarni boshqarish organi, kollegiyasi tashkil qilinib, kallegiya a'zolari jami 6 kishidan



iborat bo'lib, uning tarkibiga ikkita mudarris bitta xalq sudyasi hamda xalq o'qituvchilari kiritiladi. Bunday kollegiyalar Qo'qon, Andijon, Eski Marg'ilon, Namangan, Samarqand, Xo'jand kabi shaharlarda tashkil topadi.

Qirqdan ortiq uyezdlarda mavjud bo'lgan madrasalarni boshqaruv kollegiyalari viloyat kollegiyalariga bo'ysundirilib, ularni boshqarish Sirdaryo viloyati markazi Toshkentda bo'lgan. Qaysi uyezdlarda madrasalar soni 20 tadan ortiq bo'lmasa, ularda mudarris, xalq sudyasi, xalq o'qituvchilaridan iborat kollegiya tashkil qilingan. Bunday kollegiyalar O'sh, Kattaqo'rg'on, Jizzax kabi shaharlarda mavjud bo'lgan.

1922-yil 20-iyun dekretidan so'ng Turkiston Respublikasi viloyatlaridagi madrasa va masjidlarning aniq sonini hisobga olish, ularning har biridagi mudarrislar soni, u yerda o'qitiladigan fanlarning dasturi, mudarrislariga o'quv predmetlarini taqsimlanishi, daromad va xarajatlar hisob kitobi haqida aniq ma'lumotlar talab qilinadi.

Diniy muassasalar, madrasalarni boshqarish haqida ham aniq ko'rsatmalar berilib, bu vazifa madrasa kengashi zimmasiga yuklatiladi. Kengash tarkibiga barcha mudarrislar va mutavvallilar bilan birgalikda boshlang'ich maktab boshqaruvchisi va yuqori kurs mullavachchalardan 2 kishi saylov yo'li bilan kiritilgan.

Madrasa kengashi tarkibida xo'jalik komissiyasi tashkil qilinib, unga katta mudarris, mutavalli va o'quvchilar orasidan saylangan bir talaba (mullavacha) a'zo bo'lib kirgan. Uch kishidan iborat bu komissiya vaqf mulklari hisoblangan ekin yerlari, do'kon, ombor, karvonsaroy hamda hammom kabilarni ijaraga berish, yetishtirilgan hosilni sotish va daromadlar hisobidan madrasa binosi, mullavachchalar va xizmatchilar yashaydigan hujralar, o'quv xonalarini ta'mirlash vazifalari bilan shug'ullangan. O'quv yili xarajatlari smetasini tuzish ham, xo'jalik kollegiyasi zimmasiga yuklatilgan.

Madrasa va masjidlarni ta'mirlash, diniy marosim, tadbirlar hamda diniy ta'limni yo'lga qo'yish uchun avvalo ularni moddiy ba'zasi bo'lgan vaqf mulklari daromadini yaratish zarur edi. Bolsheviklar hokimiyatga kelgandan so'ng o'tgan 5 yil mobaynida, diniy muassasa va tashkilotlarning moddiy suyanchig'i bo'lgan vaqf mulklarini davlat hisobiga o'tkazilishi oqibatida, o'nlab madrasalar, minglab masjidlar ta'mirlashga muxtoj bo'lib qolgan edi.

Vaqf mulklari diniy muassasa va tashkilotlarga qaytarilgandan so'ng, uni istifoda qiladigan mutavalli majburiyatlari ham maxsus dekret bilan belgilab berildi. Mutavalli madrasa kengashi tomonidan umumiy ishonch bildirish yo'li bilan saylanadi, u 30 yoshdan kichik bo'lmasligi va nomzodi uyezd ijroiya qo'mitasi komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi kerak edi. Nufuzli madrasalarda mutavalli yordamchisi ham tayinlangan. Mutavalli majburiyatlariga kirim-chiqim kitobini yuritish, pul-mablag'lari hisobotini tuzish, vaqf mablag'larini ya'ni daromadlarini to'plash va saqlash, vaqf mulklaridan qurilishlar uchun mablag' ajratish va davlat soliqlarini o'z vaqtida to'lash, madrasa kengashi qarori bilan uning mulklarini ijaraga berish kabi vazifalari yuklatilgan.

Turkiston ASSR MIQning №164-raqamli 1923-yilning 2-oktabrida chiqargan

dekretida barcha vaqflar ikki guruhga bo'lingan bo'lib, quyidagilar qayd etilgan:

- 1) Diniy.
- 2) Madaniy - ma'rifiy va hayriya mulklari. Bu mulklarni sotish va sotib olish ta'qiqlanishi uqtiriladi.

Ushbu dekret asosida vaqf muassasalarini va mulklarini idora qilish uchun Vaqf Bosh Boshqarmasi hamda joylarda uning bo'limlari joriy qilinadi. Vaqf Bosh Boshqarmasi Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi bo'limi sifatida faoliyat yuritishi, joylardagi vaqf bo'limlari esa shahar va uyezd ijroqo'mlari qoshida tashkil qilinishi belgilab qo'yildi.

Dekretning ikkinchi bobi 13-bandida Vaqf Bosh Boshqarmasi raisi, Xalq Komissarlar Soveti tomonidan tayinlangan ikki a'zodan iborat bo'lishi kerak edi. Ular Adliya xalq komissarligi va NKVD vakili bo'lib, TASSR XKS tomonidan tasdiqlangan.

Sovet hukumati vaqflarni diniy muassasa va tashkilotlarga qaytarib berish bilan birga, ular faoliyatini davlat qonunchilik organlari orqali qattiq nazorat ostiga oldi. Hatto, Markaziy boshqaruv tizimiga jazo organlari vakillarini shaxsan jalb qiladi. Ko'p o'tmasdan o'sha 1922-yilning 28-dekabrida Turkiston ASSR Markaziy iroiya qo'mitasi №173-raqamli vaqflar haqidagi dekretini chiqarib, 1922-yil 20-iyundagi №75-raqamli dekretini bekor qiladi. Butun diniy muassasa va tashkilotlarni hukumat tomonidan qat'iy nazorat ostida bo'lgan vaqf bo'limiga tobe qilib qo'ygan.

Vaqf mulklarini tiklash bilan bog'liq Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasining 1922-yil 20-iyundagi dekreti qabul qilingandan so'ng amalda sovet hukumatining dastlabki yillarida ta'qiqlab qo'yilgan qozilik va biylik sudlariga 1922-yilning oktabridan boshlab, ayrim masalalar yuzasidan ish yuritishlikka ruxsat beriladi. Ular asosan oilaviy nikoh va ajralishlar to'g'risidagi muommolarga aralashuvi ruxsatini olgan edi.

Qarorda qorixonalar masalasiga alohida e'tibor qaratilib, bu borada ham bir qator shartlar belgilangan. Jumladan, qorixona boshqaruvchilarining "Tajvid" dan xabardor va "Qori-murattab" bo'lishi shart qilib qo'yilgan. Qorixonaga o'qish, yozishni biladigan, "Qur'on" ni ifodali o'qiy oladigan bolalargina qabul qilinishi ko'rsatilgan.

Shuningdek, hujjatlarda qorixonalarda qori bo'lib, eski maktablarda savodi chiqqan bolalarni madrasalarga yoki yuqoriroq diniy ilmgohlarga yuborish majburiyligi uqtirilgan.

Qorixonalar qoshida savodsizlikni tugatish kursi ochishni xohlagan mudarrislar tegishli idoralardan ruxsatnoma olishlari zarur edi. Qaror mohiyatini xalqqa boshqacha qilib talqin etuvchilar Turkiston ASSR MIQning qaroriga binoan hukumat yo'li bilan jazoga tortiladi, deb ogohlantirilgan.

Bunday mazmundagi hujjatlar boshqa joylardagi mahalliy idoralar tomonidan ham qabul qilingan edi. Yuqoridagi talab asosida ishning tashkil etilishi, joylarda musulmon maktab va madrasalari ustidan nazoratni kuchaytirdi. Ko'p hollarda bu maktablarni ichki ishlariga aralashish va ularni zo'rlik bilan yopib qo'yish hollari sodir bo'ldi.



1917-1924-yillarda Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatining diniy muassasa va tashkilotlarga nisbatan yuritgan siyosati beqarorlik va ishonchsizlik tamoyillariga tayangan bo'lib, barcha ko'rilgan chora-tadbirlardan maqsad, o'lkada bolshevikcha tartiblar va sovet hokimiyati tuzumi asoslarini mustahkamlashga qaratilgan edi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, 1922-1924-yillarda dinga va diniy muassasalar faoliyatiga bir qadar yo'l ochib berilishi sovet hokimiyatining Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) davridagi tadbirlari bilan bog'liq edi. Omonsiz harbiy to'qnashuvlar tufayli xo'jalikning butunlay vayron bo'lishi, dahshatli ocharchilik, bolshevikcha tartiblarga nisbatan qarshilik ko'rastish jarayoni kabi omillar hokimiyatni boshqarishda murosali yo'l bilan ish ko'rishga majbur qilgan edi. Turkistonda maorif va madaniyat rivoji, iqtisodiy ahvolni diniy muassasalar bilan bog'liqligi ham sovet hukumatini vaqtincha ochiqdan-ochiq dahriylik siyosatini olib borishlikdan ehtiyot bo'lishga majbur qilgan edi. Turkiston ASSR MIQning vaqf idoralari faoliyatini maorif bo'limi tomonidan nazorat o'rnatish to'g'rsidagi qarori diniy muassasalar ahvolini yanada og'irlashtirdi. Eski usul maktablari va qorixonalar maorif bo'limi tomonidan isloh qilishga kirishildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.ЎзР МДА, 1-фонд, 18-рўйхат, 29-иш.
- 2.Эргашев Б. Х. Идеология национально-освободительного движение в Бухарском эмирате. -Т.: Фан, 1991.
- 3.ФВДА, 121-фонд, 1-рўйхат, 31-иш.
- 4.Маткаримов М. Хоразм Республикаси давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. Урганч, 1993.
- 5.ЎзР МДА, 94-фонд, 1-рўйхат, 320-иш.
- 6.ЎзР МДА, 25-фонд, 1-рўйхат, 1414-иш.
- 7.Адҳамов А. Дин ҳам шўролар ҳукумати. Тошкент-Самарқанд: Ўзнашр, 1929.
- 8.Бухоро ахбори. 88 сон, 1922, 29 июнь (араб имлосида). 88 сон, 1922, 5 июль
- 9.Наука и религии. 1985. № 12. - С. 19.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonda sovet hokimiyatining dastlabki yillarida vaqf mulklarining ahvoli yoritilgan. Muallif arxiv hujjatlari va boshqa manbalar tahlili asosida sovet hokimiyatining Turkistonda yuritgan diniy siyosatini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Аннотация: В статье описывается состояние собственности вакфа в первые годы советской власти в Туркестане. На основе анализа архивных документов и других источников автор научно обосновал религиозную политику советской власти в Туркестане.

Annotatsiya: This articles describes the state of waqf properties in the early years of Soviet power in Turkestan. Based on the analysis of archival documents and other sources, the author scientifically justified the religious policy of the Soviet authorities in Turkestan.



BUXORO AMIRLIGIDA SOLIQ SIYOSATI

Jurayev Husniddin Pazliddinovich
Farg'ona davlat universiteti

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi, iqtisodiy muammo, dehqonchilik, g'azna, qishloq xo'jaligi, zakot, jul, yig'im, chorva mollari, mardikorona, amaldorlar, muazzaf, uloq.

Amirlikda XIX asr oxiri XX asr boshlarida davlat boshqaruvining eski tartib-qoidalar asosida qurilganligi, ma'muriy islohotlarning yillar davomida o'tkazilmaganligi jamiyat hayotida qoloqlik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning tez-tez namoyon bo'lishiga sabab bo'layotgan edi. Iqtisodiy siyosatning faqat dehqonchilik bilan bog'lanib qolganligi, mamlakatda sanoat sohasining og'ir ahvoli, tashqi dunyo bilan aloqalarning cheklanganligi davlat g'aznasini boyitishning yagona yo'li soliqlar miqdorining oshirilib borilishi ko'rinishidagi yechimga kelinishiga sabab bo'lgan edi. Mulkka egalik qilish va uni tasarruf qilish bilan bog'liq munosabatlarning eskirib ketganligi, davlat va fuqarolarning o'zaro ishonchsiz aloqasi asosan soliq tizimining adolatsiz, bir tomonlama bo'lishiga borib taqalar edi.

XIX asr oxirlarida ham amirlik muzofotlarida yashayotgan aholi vakillari o'rta asrlar davriga oid bo'lgan, ma'naiy eskirgan qishloq xo'jaligi majburiyatlarini bajarishga jalb etilgan edi. Davlatning agrar harakterga ega ekanligi, tashqi mamlakatlar bilan aloqalarning deyarli mavjud emasligi, qishloq xo'jaligida yerga ishlov berishning eski tartibotlari o'zgarmaganligi sababli sohada o'sish umuman kuzatilmagan. Dehqonchilik maydonlaridan hosil olishning ekstensiv usuli yerlarni ham charchatib yuborgan edi.

Arxiv manbalarida qayd etilganidek, amirlikda mavjud yer maydonlarining juda katta qismi Buxoro amiriga tegishli edi. Butun musulmon sharqida bo'lganligi kabi Buxoro amirligida ham davlat boshlig'iga nisbatan "Allohning yerdagi soyasi" sifatida qaralganligi sababli, amirga tegishli yerlar mahalliy aholi tilida "zamini podshohi" deb yuritilgan. Amirlik dehqonlari mazkur yerlardan foydalanganliklari uchun davlatga xiroj, zakot, amirona kabi soliqlarni muntazam to'lab borishgan. Soliqlar qatorida jul, qora chorak, muazzaf, mardikorona, uloq, kunorg'a kabi qo'shimcha soliq va yig'imlar ham bo'lgan.

Musulmon huquqiga ko'ra aholidan zakot solig'i undirilgan. Mazkur zakotning bir qancha turlari ham mavjud bo'lgan. Xususan, amirlikda chorva mollari boqish bilan shug'ullanadigan aholi vakillari zakoti savoim hamda zakoti chakana kabi soliq turlarini to'lashga majburlangan. Zakoti savoim solig'i chorvadorlar qo'lida bo'lgan har o'n bosh qo'ydan yillik to'rt tanga miqdorida undirilgan. Zakoti chakana



esa mazkur soliqni to'lay olish quvvatiga ega bo'lmagan, xo'jaligida 40 boshdan kam qo'y va echkilari bo'lgan aholi vakillaridan undirilgan. Lekin, zakoti chakananing bunday tartibda undirilishi islom shariatiga umuman zid bo'lgan xatti-harakatlardan biri edi. Shariat hukmlariga ko'ra, amirlik yaylovlarida boqiladigan har bir podadan 5 bosh tuya va bir bosh qo'y olish mumkin bo'lsa, amirlikdagi tizimga ko'ra har 40 bosh qo'ydan bir dona qo'zi miqdorida zakot solig'i undirib borilgan. Amirlik hududida savdo munosabatlari bilan shug'ullanuvchi shaxslardan ham amir xazinasi uchun 2,5 foiz miqdorida zakot olingan.

XIX asr oxirlariga kelib endi amirlikda zakot solig'ini faqat natura ko'rinishida emas, balki pul nisobida ham to'lash mumkin bo'lgan. Aynan shu jihat aholining haqli qarshiligiga sabab bo'la boshladi. Chunki soliqlarni yig'ib olish va xazinaga jo'natishdagi suiste'molchiliklar haqidagi ma'lumotlar bir qancha manbalarda uchraydi. Masalan, Baljuvon bekligida aholidan zakot yig'img'larini undirub oluvchi mahalliy amaldor beklik aholisidan 245 ming tanga miqdorida zakoti savoimni yig'ib olgani holda, amirlik xazinasiga bundan 225 ming tanga miqdorini jo'natib, o'zining yoniga 20 ming tanga pulni olib qoladi.

Amirlikdagi mavjud tartib-qoidaga ko'ra aholi qo'lidagi chorva mollari soni qirq boshdan kam bo'lsa, undan kamroq miqdordagi zakot miqdori undirilgan va bu zakot turi zakoti chakana deb atalgan. Joriy soliq turini undirishda ham adolatsizliklar kuzatilgan. Chunonchi, Xatirchi viloyatining Chingiz degan qishlog'ida yashovchi fuqaro Abdushukur mahalliy zakotchilar undan noqonuniy to'lov undirishganini, unda bor-yo'g'i 12 bosh mayda chorva bo'lishiga qaramasdan undan to'liq zakot miqdori talab qilinganini qayd etadi. Chorva egasining mazkur murojaati mahalliy qozilik tomonidan o'rganilib chiqilgan, undan zakot solig'ini undirish shariatga nomuvofiq deb topilgan. Unga to'lagan puli qaytarib berilgan. Bir qancha manba va adabiyotlardagi ma'lumotlar aholi va chorvadorlardan zakot solig'i muntazam undirib borilganligini qayd etadi. Ya'ni, hududlarda kuzatiluvchi qurg'oqchilik, yaylov maydonlarining talofatga uchrashi, qo'y-qo'zilarga kasal tegib qirilib ketgan taqdirda ham aholi va chorvadorlardan zakot undirish to'xtamagan, chorvadorlarga kompensatsiya va imtiyozlar taqdim etilmagan. Juda kamdan-kam hollardagina zakot miqdorini undirish keyingi yilga qoldirilgan. Bunda esa chorvadorlar ikki yillik soliq miqdorini birdaniga to'lashiga to'g'ri kelgan. Ayrim hududlarda esa mahalliy zakot yig'uvchilar tomonidan chorvadorlar qo'lida mavjud podalardagi chorva mollari soni sun'iy ko'paytirib yozilgan va ko'proq soliq undirishga urinishlar harakatlar bo'lgan. Aholining kun kechirishi qiyin bo'lib borayotgan bir davrda bunday adolatsiz harakatlar amirlikdagi chorvador-dehqonlarning keskin noroziliklari va bora-bora qo'zg'olonlar ko'tarilishiga olib kelgan.

O'rganilayotgan davrda Buxoro amirligining umumiy hududi qariyb 4 mln desyatnani tashkil qilib, uning 2 mln 700 ming desyatina qismida zirotchilik bilan shug'ullanilgan. Dehqonchilik maydonlarining katta qismi Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo hududlariga, shuningdek, Amudaryoning yuqori oqimlariga to'g'ri kelgani holda bu yerlarning aksariyatiga boshhoqli ekinlar, shu jumladan, bug'doy va arpa ekilganligi qayd etilgan. Amirlikning lalmi yerlarida tariq va kunjut



TADQIQOT

yetishtirilib, undan asosan yog' olingan. Xususan, tariq o'simligi Surxondaryo, Ko'lob, Vaxsh vohalarida ekilib, iqtisodiy tahlil manbalariga ko'ra har bir tanob yerdan qariyb 30 pud tariq, 15 pud zig'ir hosili yig'ishtirib olingan.

Amudaryoning o'rta va yuqori oqimlarida joylashgan Boysun-Sherobod, Denov, Fayzobod, Kofirnihon kabi vohalarda asosan donli va dukkakli ekinlar yetishtirilib, yillik o'rtacha hisobda 130 ming gektar maydonga g'alla, 34 ming gektarga sholi, 24 ming gektarga arpa, 20 ming gektarga kunjut, 17 ming gektarga zig'ir, 7 mingga gektar tariq, 50 ming gektarga jo'xori, 10 ming gektarga beda ekilganligi qayd etilgan. Shuningdek, mazkur hududlarda 500 ming gektarga paxta ekilgan bo'lsa, 3400 gektarlik maydonda uzum, 6500 gektarlik polizlarga poliz mahsulotlari ekilganligini ta'kidlash lozim.

Chorvadorlarda bo'lgani kabi dehqonlardan ham bir qancha soliq va to'lovlar undirilgan. Amirlik hududlari bo'ylab dehqonlardan olinadigan soliqlar miqdori bir-biridan farqlangan. Ya'ni amirlik tarkibidagi ayrim viloyat va bekliklarda dehqonlar olingan hosilning $1\frac{1}{10}$ yoki $1\frac{1}{5}$ qismi miqdorida xiroj solig'i undirilgan bo'lsa, ayrim markaziy viloyatlarda $1\frac{1}{4}$ va $1\frac{1}{3}$ ko'rinishida ulush olingan. Amirlik tarkibidagi bekliklarda xiroj solig'i miqdori bir tanga yoki har bir tanob yerdan uch chorak (15 fut) natura ko'rinishida bir yil davomida ikki marta yig'ib olingan.

Yilda ikki marta yig'ib olish mart-aprel hamda sentyabr-oktyabr oylarida amalga oshirilgan. Ayrim favqulodda holatlarda xiroj solig'ining yarmi, ya'ni nimxiroj undirilgan. Amirlik iqtisodiy inqiroz holatiga tushib qolgan davrda amirlikning Sharqiy Buxorodagi bekliklarida yig'ib olingan hosilning teng yarmi soliq sifatida olib ketilgan. Bunday ma'lumotlar juda ko'plab manbalarda uchraydi. Keltirilgan dalillardan xulosa qiladigan bo'lsak, dehqonlar o'zlarining og'ir mehnatlari evaziga arzimagan miqdorda foyda olishgan. Sharqiy buxorolik bir dehqonning yil davomida yetishtirgan jo'xorisi 16 pud chiqqan, undan teng yarmi xiroj nisobiga undirilgan. Qolgan 8 pud jo'xorisi ham mahalliy hokimiyat vakillari qo'lida talon-taroj qilingan. Chunonchi, o'sha 8 pud jo'xorining 2 pud qismi soliq yig'uvchilar boshlig'i bo'lmish sarkorga, xirojchining o'ziga 1 pud qismi, dehqon yashaydigan qishloq oqsoqoli-aminga 1 pud nisobi, qishloq imomiga bir pud, qishloq qozisiga 1 pud jo'xori taqsimlangan.

Ma'lumotning rus tadqiqotchilari tomonidan taqdim etilganligi undagi fikrlarning qisman bo'rttirilganligini ham ko'rsatishi mumkin. Chunki sovet hokimiyati yillarida ilgari surilgan mafkuraga ko'ra ittifoqdosh davlatlarning sovet hokimiyatidan oldingi davri tanqid ostiga olingan. Mahalliy aholida nafrat uyg'otish maqsad qilib qo'yilgan. E'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlardan yana biri aynan o'rganilayotgan davrda dunyoning ko'pgina davlatlari, xususan Podsho Rossiyasining o'zida ham aholining boy va kambag'al qismi o'rtasidagi tafovut juda kuchli bo'lgan. Yerga egalik, soliq munosabatlarida keskinlik va muammolar mavjud edi. Mehnatkash amirlik aholisi esa ob-havoning noqulayligi, soliqlar miqdorining yildan-yilga oshib borishi, sug'orish inshootlarining talab darajasida emasligiga qaramasdan qattiq mehnat qilib, kun kechirishga harakat qilishar edi.

Ma'lumki, Podsho Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklariga uyushtirgan harbiy



yurishlarining ikkinchi bosqichida Buxoro amirligi rus qo'shinlari tomonidan bo'ysundirildi va rus protektoratini tan olishga majbur bo'ldi. Mag'lubiyat faqat shu bilan tugallanmadi. Amir zimmasiga rus qo'shinlarining yo'qotishlari evaziga katta miqdorda kontributsiya to'lashi ham yuklandi. To'lanishi lozim bo'lgan summani qoplash maqsadida amirlik aholidan yig'iladigan soliqlar miqdorini yanada oshirishga qaror qildi. Yig'im va to'lovlar miqdorining keskin oshirilishi nafaqat kambag'al dehqon va chorvadorlarni, balki, o'rta va yirik yer-mulk egalarini ham og'ir ahvolga solib qo'ydi.

Aholining soliqlar miqdoridan noroziligi Surxondaryo va Qashqadaryo bekliliklarida ayniqsa keskin tus ola boshladi. O'rta va quyi bo'g'indagi amaldorlar aholining kayfiyatini, soliqlardan og'ir ahvolga tusha boshlaganliklarini markaziy hokimiyatga yetkazishdan ko'ra, aholiga qarshi qaratilgan jazo choralarini kuchaytira bordilar. Sharqiy Buxoro hududlari rus qo'shinlari ko'magida Buxoro amirligiga to'liq bo'ysundirilgach, Baljuvon bekligiga amirning yaqin odamlaridan biri Sherali Inoqning o'g'li Abdukarim bek qilib tayinlandi. Abdukarim zimmasiga Buxoro amirining podsho Rossiyasi oldidagi tovon majburiyatini to'lashga, aholidan pul mablag'larini undirishga yordamlashish kabi qiyin vazifa yuklatildi. Soliqlar miqdorining oshirib yuborilishi aholining qattiq qarshiligiga sabab bo'la boshladi. Jumladan, 1870-yili Baljuvon bekligi aholisi soliq va to'lovlar miqdorini kamaytirishni talab qilib, beklilik rahbari Abdukarimbekka murojaat qilishadi. Bek bu iltimosnomaga keskin rad javobini beradi. Natijada aholi qo'zg'olon ko'tarib, soliqlarni to'lashdan umuman bosh tortishdi. Te orada qo'zg'olon ishtirokchilari soni ikki ming nafardan oshib, bekning qo'rg'onini qurshab olib, vayron qilishadi va bek va uning yaqinlari quvg'in qilinadi. Mazkur qo'zg'olon amirlikning markaziy qismidan jo'natilgan sarbozlar yordamida bostirilgan.

Xuddi shunday tartibsizlik 1871-yilning bahorida, yilning dastlabki xiroj solig'ini undirish pallasida G'uzor va Qarshi bekliliklarida sodir bo'lgan. Qo'zg'olonchilar soni o'n ming kishiga yaqinlashgan edi. G'alayon juda qiyinchiliklar bilan bostirilgan.

Xulosa o'rvida ta'kidlash lozimki, Buxoro amirligida soliq munosabatlari iqtisodiy siyosat hisoblanib, amir xazinasini to'ldirishga qaratilgan edi. Saroy muhitida yozilgan bir qancha manbalarda amirning soliq siyosatidagi insonparvarlik omillari haqida fikr yuritilsa ham, buni boshqa bir qancha manbalar inkor etadi. Ayrim voqealar sharafiga shaxsan amirning o'zi yoki ayrim hollarda qushbegi tomonidan aholini soliqlardan qisman ozod qilish yoki soliq yukini birmuncha qisqartirish holatlari uchrab turgan. Lekin vaqtinchalik qo'llangan bunday choralar umumiy vaziyatni o'zgartira olmasdi. Ahvol yildan-yilga yomonlashib boravergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Хакимова К.З. Крестьянство Бухарского эмирата в конце XIX- начале XX вв. - Ташкент:Фан,1991. -С.10-11.
2. ЎЗМА, И 126-фонд, 1-рўйхат,995-иш, 2-варақ
- 3.История Узбекской ССР. В 4-х томах. 2., -Ташкент,1967. -С.99.
- 4.Туркестанские ведомости.1870.№17.

5.ЎзМА, И 1-фонд, 34-рўхат,109-иш, 17-варақ

6.Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент: ЦСУ Туркеспублики,1922. – С.11.

7.Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.,1975. – С.106–109.

8.Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX в. Ч.II. – Душанбе: АН Тадж. ССР, 1963. – С.184.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligida soliq turlari va soliq siyosati manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida o'rganilgan va tahlil qilingan. Ularning aholining kundalik turmush-tarziga va ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri statistik materiallar asosida tadqiq qilingan va ilmiy xulosalar berilgan.

Аннотация: В данной статье на основе источников и научной литературы изучаются и анализируются виды налогов и налоговая политика в Бухарском эмирате. На основе статистических материалов исследовано их влияние на повседневный образ жизни и социально-экономическую жизнь населения и даны научные выводы.

Annotation: In this articles, types of taxes and tax policy in Bukhara Emirate are studies and analyzes bases on sources and scientific literature. Their impact on the daily lifestyle and socio-economic life of the population was researched based on statistical materials and scientific conclusions were given.



O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARDA BAXSHICHILIK SAN'ATINI RIVOJLANISHI

Murodova Sadoqat Qo'ziboyevna
Qarshi davlat universiteti

Kalit so'zlar: Baxshi, doston, jirov, jirchi, dumbira, qo 'biz chanqavuz, darvesh, qalandar, yuzboshi, festival, termalar.

Baxshichilik xalq og'zaki ijodining asosiy namunalaridan biridir. Baxshichilik san'ati nomoddiy me'ros sifatida ahamiyatli chunki, bu jarayonda xalqning azaliy an'analari qadriyatlari, turmush tarzi aks ettiriladi. Baxshichilik o'zida musiqa, sheriyat, ijrochilik mahoratini mujassam etadi. San'atning bu noyob turi xalq orasidagi og'ir mehnat, zo'ravonlik, adolatsizlik illatlarini ritmga solib tanqid sifatida ijro etgan. Xalq og'zaki ijodining yuksak professional san'at turi doston va dostonchilikni paydo bo'lishi, taraqqiyoti baxshilar nomi bilan bog'liqdir. H.T. Zarifovning yozishicha baxshi mo'g'ulcha va buryatcha baxshi, bag'sha so'zlaridan olingan bo'lib, ustod ma'rifatchi degan ma'noni bildiradi. Baxshichilikda xalq dostonlari keng yoritib berilgan. Dostonlar ma'no, mazmun va munosabat jihatdan bir necha turlarga bo'linadi ya'ni qahramonlik, tarixiy, romantik va kitobiy turlarga ajratish mumkin. Xalq dostonlarini ijrochilari nomlanishi geografik jihatdan farqlanadi ya'ni Qashqadaryo va Surxondaryo tomonlarda yuzboshi, Tojikiston hududlarida esa jirov, jirchi ko'rinishida uchraydi. Ushbu hududlarda musiqa uslubida dostonchilikning ikki yirik markazi Shahrisabz va Sherobod dostonchilik maktablari vujudga kelgan. Abdulla Nurali o'g'li va Islom o'g'li kabi shoirlar Shaxrisabz dostonchilik maktabining yirik namoyandalari bo'lsa, Shernazar Beknazar o'g'li, Mardonqul Avliyoqul o'g'li, Umar Safar o'g'li, Normurod baxshilar esa Sherobod dostonchilik maktabining mashhur vakillaridirlar. Qashqadaryo va Surxondaryo kabi Samarqand viloyati ham baxshichilikning markazlaridan biri hisoblanadi. Samarqand farzandi ulug' baxshi-shoir Fozil Yo'dosh o'g'lining ijodi beqiyosdir. Uning repertuaridan "Alpomish", "Murodxon", "Shirin va Shakar", "Avazxon", "Farxod va Shirin", "Rustamxon" kabi 40 dan ortiq dostonlar o'rin olgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li nafaqat tarixiy dostonlar, balki o'z zamonasi va davrini ta'riflovchi, qahramonlari hayotini aks ettiruvchi mavzularda ham yangi dostonlar va termalar yaratgan. Shular orasida "Jizzax qo'zg'oloni", "Mamatkarim polvon", "Kunlarim", kabi dostonlari xalq orasida juda mashhur bo'lgan. Fozil yo'ldosh o'g'li ijodida "Alpomish" alohida o'rin tutgan. Shu boisdan ham Hamid Olimjon uning "Alpomishni kuylashiga nihoyatda yuksak baho bergan. Ulug' baxshi-shoirming nomini abadiylashtirish hamda ijodini asrab avaylash kelajak avlodga bezavol yetkazish maqsadida tashkil etilgan Fozil Yo'dosh o'g'li muzeyidan baxshi dostonlari bilan bir qatorda Bulung'ur dostonchilik maktabining 34 nafar baxshilarining madaniy me'rosi ham joy olgan. Muzeyda baxshining 1294 hijriy yida yasalgan do'mbirasi saqlanmoqda.

Shu o'rinda Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida dunyoga kelgan

buyuk san'at va ist'edod sohibi Qodir baxshi ham o'zidan boy me'ros qoldirgan. U Dehqonobod baxshichilik maktabining asoschisi 26 tadan oshiq do'mbira chertishlarini cherta olgan 70 dan ortiq dostonlarni yod olgan iste'dodli baxshi shoir. U o'z faoliyati davomida ko'plab yutuqlarga erishdi. Respublika baxshi-shoir va oqinlarning ko'rik tanlovida 6 marta oliy o'rinni, 1971-yul Parijda o'tkazilgan xalqaro xalq ijodiyoti festivalida birinchi o'rinni, 1976-yil Qozog'istonning Olma ota shahrida o'tkazilgan xalqaro festivalda birinchi o'rin va "Oltin olma" sovrini bilan mukofotlangani, 1978-yil Moskva shahrida o'tkazilgan xalqaro festivalda ham birinchi o'ringa loyiq topilib "Buyuk iste'dod" kubogi bilan taqdirlangani, uning buyuk baxshi-shoir hamda madaniyat arbobi ekanligini anglatadi. Uning vafotidan so'ng esa AQSHning Felodelfiya shtatidagi pensi'vaniya dorulfuni professori mister Zax Vol'ternin uning ijodini o'rganish uchun Xo'jamahmud qishlog'iga kelib uning o'g'li Qahhor baxshini AQSHga taklif qilgan. Shuning natijasi o'laroq bugungi kunda baxshichilik san'atini rivojlantirish uchun bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilmoqdaki, Viloyat va tumanlarda tashkil etilayotgan musiqa va san'at maktablarida baxshuchilik alohida yo'nalish sifatida ustoz-shogird an'analari asosida o'rgatib kelinmoqda.

III "Sharq taronalari" xalqaro festival davomida asosiy e'tibor folklor dastalarining chiqishlariga qaratilganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Hodi Zarifovning tekshirishlariga ko'ra dostonchilik maktablari g'oyaviy yo'nalishlari jihatidan ikki guruhga bo'lingan. Birinchi guruh baxshilari, saroy shoirlari, qalandar, darveshsfat baxshilar hisoblanishadi. Ikkinchi guruh baxshilari esa bevosita mehnatkash omma orasidan yetishib chiqqan va ularning manfa'atlarini himoya qilgan xalq kuychilari bo'lib, xalq yaratgan badiiy ijodining eng yaxshi namunalarini saqlagan va demokratik g'oyalarni ilgari surgan dostonchilardir. Folklorshunoslar fikricha esa mamlakatimizda qadimdan uch yo'nalishda dostonchilik maktabi rivojlangan. Bulung'ur Narpay, Nurota, Qo'rg'on, Shaxrisabz, Qamay, Sherobod maktablari birinchi yo'nalishga, Xorazm dostonchilik maktablari ikkinchi yo'nalishga mansubdir. Uchunchi yo'nalish Farg'ona dostonchilik maktablari hisoblanadi.

Dostonchilik xalq og'zaki poetik yodidagi epik an'ana dastlab qo'shiq shaklidagi musiqa asboblari bilan kuylanadigan asarlar yaratilgan. Kiyinchalik dumbira jo'rligida aytiladiganlari yuzaga kelgan. Dostonchilikni bunday na'munalari kasbiy va orol dengizlari bo'ylaridagi qadimgi ko'chmanchi turkiy qabilalar orasida vujudga kelgan. XV -XVI asrlarga kelib ko'pgina dostonchilik maktablari paydo bo'lgan. XVII-XVIII asrlarda esa dostonchilik taraqqiyotida jiddiy ko'tarilishlar bosqichlari kuzatilgan XIX-XX asrlarda esa uning eng rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda baxshilar repertuarida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo'lgan. So'ngi yillarda Respublikamizda milliy o'ziga xoslikning shakllanishida muhim omil sanalgan an'anaviy qadryatlari va madaniyatiga bo'lgan e'tibor nihoyatda oshdi. Madaniyat va san'at sohasi, milliy madaniyat xalq amaliy san'ati, maqom va baxshichilik san'atlari uning mahalliy (lokal) uslublari, folklor san'atiga tobora yuksak e'tibor berilayotgani yurtimizda madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasining qator farmon va Qarorlari qabul qilinishi hamda nufuzli xalqaro festivallari va ilmiy anjumanlari Samarqand "Sharq taronalari" (avgust 1997-2019), Shahrisabz "Maqom san'ati" (mart 2018), Termiz "Baxshichilik san'ati (aprel 2019), folklor san'ti bilan bog'liq "Boysun



bahori" (2017-2019) o'tkazilishi maqom va baxshichilik maktablarining tashkil etilishi buning yorqin namunasidir. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 1-noyabrdagi "xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi qarori bu boradagi ezgu ishlarni davom ettirishda muhim dasturulamal bo'ldi. Termiz shahrida ilk marta o'tkazilgan xalqaro baxshichilik san'ati festivalida dunyoning 74 davlatidan 160 dan ziyod ishtirokchilar hamda faxriy mehmonlar ishtirok etishdi. Festival doirasida Termiz shahrida xorijiy va mahalliy olimlar ishtirokida "Baxshichilik san'atini jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi. Unda AQSH, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Koreya va Turkiya davlatlaridan kelgan olimlar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdi. Ayujav Alimaa, Mo'g'uliston Fanlar akademiyasi og'zaki adabiyot tadqiqoti instituti rahbari: Xalqaro baxshichilik san'ati festivali doirasida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada "Mo'g'ul va o'zbek tillaridagi eposlarning terminologik tomonlari" mavzusida ma'ruza bilan ishtirok etib, xalq og'zaki ijodini asrab qolishga davlat darajasida jiddiy e'tibor berilayotganiga alohida to'xtalib o'tdi. Jan MUSI, Shveysariya va Lixtenshteyn xorij matbuoti assotsiatsiyasi prezidenti: U Mamlakatimizda kiyengi yillarda milliy o'zlikni anglashga, umumbashariy madaniyatning uzviy qismi bo'lgan qadimiy an'ana va urf-odatlarini asrash va rivojlantirishga qaratilayotgani e'tibor, folklor san'atini kelajak avlodlarga bezavol yetkazishga naqadar intilayotganliklari haqida o'z fikrlarini bayon etdi. Xalqaro baxshichilik san'ati festivali haqida Germaniyada "Uzbekistan online" portal bosh muharriri, O'zbekistonni matbuotda yoritish bo'yicha faol mutaxassis Gerhard Birkel maqolasi chop etilib, "So'nggi sakkiz yil moboynda O'zbekistonga ko'p bora tashrif buyurdim galdagi tashrifimdan maqsad Termiz shahrida o'tkazilayotgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini yoritishdan iborat" deydi muallif. Bundan tashqari muallif o'z maqolasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohatlar, ajoyib me'morchilik san'ati uslubida bunyod etilgan binolar, rang-barang chiroqlar bilan bezatilgan Termiz shahri haqida iliq fikrlar bildirgan.

Adabiyotlar

1. "O'zbek xalq og'zaki ijodi" "Musika nashriyoti" Toshkent. 2010-yil. 235-236 betlar
2. "Zarafshon gazetasi" 2002 8-10 betlar.
3. "Daryo gazetasi" 2019 yil 4-11 aprel 4- 4 betlar.
4. "Voxa gazetasi" 2022-yil 18 yanvar 7 bet.
5. "O'zbek xalq og'zaki ijodi" Oxunjon Safarov. 230 bet. (370-bet)
6. Wikipediya.

Annotatsiya

Ushbu maqolada baxshichilik san'atining rivojlanishi, baxshichilik maktablarini faoliyati, yurtimizda yashab o'tgan buyuk baxshilar hamda ularning ijodini o'rganilishi, baxshilarning madaniyat va san'at sohasiga qo'shgan hissalari hamda vatanimizda o'tkazilayotgan baxshichilik festivallari va u haqida jahon mamlakatlaridan kelgan musiqachilarining fikrlari haqida ma'lumotlar berilgan.



TADQIQOT

O'ZBEKISTON SHAROITIDA DINIY BAG'RIKENGLIKNI MUSTAHKAMLASH IMKONIYATLARI

Ж.К.Тоғаймуродов,
Иқтисодиёт ва педагогика университети НТМ

Калитли сўзлар: дин, диний таълим, глобаллашув, тарбия, ислом, мадраса, масжид, конфессия, ҳадис, маҳалла, тарих, ғоя, фан, маориф, қонун, бағрикенглик.

Диний глобаллашув шароитида диний бағрикенглик ғояларини кенг тарғиб ва ташвиқ қилиш, жамиятдаги диний бағрикенглик муҳитини асраб-авайлаш, жамият аъзоларини ўзга дин ва унинг вакилларига сабр-тоқат билан муносабатда бўлишга одатлантириш масалалари умумижтимоий аҳамиятга молик, жамият истиқболларини таъминлайдиган вазифалардан бирига айланмоқда. Шу муносабат билан бу вазифани рўёбга чиқариш имкониятла-рини аниқлаш масаласи долзарб характер касб қилмоқда. Бизнинг фикри-мизча, Ўзбекистонда диний бағрикенгликни мустаҳкамлаш имкониятлари қуйидагилар билан боғлиқ: диний таълим тизимини такомиллаштириш, унинг узлуксиз давом этишини таъминлаш; диний тарбия мазмунини бойитиш ва унинг асосий вазифаларидан бирини диний бағрикенгликни шакллантириш билан боғлаш.

Диний таълим деганда шахсга диний билимлар, ғоялар, малака ва кў-никмаларни сингдиришга, улар асосида муайян диний эътиқодни шаклланти-ришга йўналтирилган узлуксиз таълим жараёнидир. Таърифдан кўринадики, диний таълим қуйидаги вазифаларни бажаради:

- шахсда тизимли диний билим ва ғояларни шакллантириш;
- шахсда дин нормалари асосида фаолият кўрсатиш малака ва кў-никмаларини вужудга келтириш;
- диний эътиқодни қарор топтириш.

Диний таълим профессионал даражада ҳамда дунёвий таълим билан уйғунликда амалга оширилиши мумкин. Профессионал диний таълим диний фаолият билан шуғулланувчи мутахассисларни вояга етказишни мақсад қилади. Ундан фарқли ўлароқ дунёвий таълим билан уйғунликда амалга оши-рилган диний таълим шахсни диннинг ижтимоий аҳамияти катта бўлган жамиятларда унинг нормаларини инобатга олган ҳолда ижтимоий фаолият кўрсташга тайёрлайди.

Ўзбекистондаги диний таълим узоқ йиллик тарихга эга. Сирасини айтганда, ўтган асрнинг бошларига қадар мазкур таълим мамлакатдаги таъ-лимнинг асосий шаклларида бири ҳисобланган. Бундай таълим асосан



кенг ривожланган мадраса тизими орқали амалга оширилган. Хусусан, Тошкентда мадрасалар тизими кенг ривож топган эди. "Туркистон генерал-губернатор-лиги Маориф бошқармаси маълумотларига кўра, 1890-1893 йилларда губер-наторликда жами 214 та мадраса бўлиб, шундан 21 таси Тошкентда жойлаш-ган эди. Чоризм истилосининг дастлабки йилларида мадрасаларда таълим ва ўқитиш ишлари анъанавий қоидалар асосида олиб борилган бўлса, кейинча-лик уларнинг фаолиятини назорат қилиш ва ўқув ишларини тартибга солиш-ни ўлка маориф бошқармаси ўз қўлига олган. Бу пайтда Тошкент мадраса-ларидан Абулқосимхон мадрасасида 120, Хожа Аҳ-рор мадрасасида 80, Бег-ларбеги мадрасасида 150, Кўкалдош мадрасасида 80, Шарифбой мадрасасида 20, Шукурхон мадрасасида 20 нафар талаба ўқиган"[3].

Бухоро амирлигида ҳам юзлаб мадрасалар диний таълим бериш билан машғул бўлганлар. "XIX асрнинг охири ва XX аср бошларида Бухоро мадрасаларининг сони ҳақида турли манбаларда ва асарларда турлича маълумот қайд этилади. Н.Хаников мадрасалар сонини 180-200 та, талабалар сонини эса 15-16 минг нафар деб кўрсатган. XIX аср охири ва XX асрнинг бошларида Бухоро амирлигидаги мадрасалар сонини ўша даврда яшаган Абдурауф Фитрат ва Садриддин Айний 200 та, Садр Зиё 204 та, Муҳаммад Али Балжувоний эса 400 та деб кўрсатади. Хуллас, турли маълумотлар умулштирил-ганда, Бухоро амирлигида 200 дан 400 тагача мадраса мавжуд бўлган. Бухоро амирлигига қўшни, илгари мамлакат таркибида бўлган Самарқанд вилоятида 217 та мадраса бўлганлиги назарда тутилса, амирликда 400 тага яқин мадраса мавжудлиги ҳақиқатга анча яқинлиги маълум бўлади. Туркистон генерал-губернаторлиги ҳисоботи билан боғлиқ архив ҳужжатлардан бирида 1914 йилда Бухоро амирлигида 350 та мадраса фаолият кўрсатаётгани қайд этилган."[1] Кўрсатилган даврда мазкур мадрасалар тизими 20 мингдан ортиқ талабани қамраб олган [1]. Эътиборли жиҳати шундаки, мадрасада турли шаҳар-лардан ўқиш учун ташриф буюрган талабаларга икки тизим асосида таҳсил берилган. Айрим талабалар мадраса ҳузуридаги ҳужраларда жойлаштирилганлар ва таҳсил жараёнига мунтазам иштирок этганлар. Бундан ташқари машғулотларга эркин равишда қатнайдиган талабалар тоифаси ҳам мавжуд бўлган.

Мадрасаларда диний таълим дунёвий таълим билан уйғунликда олиб борилган. Талабалар нафақат ислом тарихи ва илоҳиёт асосларини, балки қатор дунёвий фанларни ҳам ўзлаштирганлар. Мавзуни тадқиқ қилган мута-хассислардан бири бу борадаги вазият хусусида шундай деб ёзади: "Мадраса-ларда ўқитиладиган илмларнинг тўлиқ тизими XI-XII асрларда шаклланган. Мадрасаларнинг ўқув дастуридан араб тили грамматикаси, морфологияси (сарфи), синтаксиси (наҳви), этимология, нотиклик, дин тарихи, қироат илми ва мунозара маданияти, илоҳиёт ва қонуншунослик, ҳадис, фикҳ, ақоид, ме-рос тақсимооти, фалсафа, мантиқ, риёзиёт (математика), жўғрофия, геометрия, тиб илми, кимё ва бошқа фанлар

ўрин олган" [3].

XX асрнинг 30-йилларидан бошлаб Совет ҳокимияти сиёсати ўлароқ Ўзбекистонда мадраса таълими қарийб тугатилди. Мамлакат мустақилликка эришгунига қадар Имом Бухорий номидаги Тошкент ислом олийгоҳи, Бухоро Мир Араб мадрасаси каби саноқли диний таълим муассасалари фаолият олиб бордилар. Лекин бу таълим масканларидаги таҳсил кенг аҳолига мўлжалланмаган бўлиб, профессионал таълим шакли эди, холос. Мустақиллик йилларида эса вазият тубдан ўзгарди. Хусусан, республикада яхлит профессионал диний таълим тизими вужудга келди. "Бугунги кунда Ўзбекистонда 15 та диний таълим муассасаси фаолият кўрсатиб келмоқда. Шулардан 13 таси Ўзбекистон мусулмонлари идораси тасарруфидаги олий ва ўрта махсус ислом билим юртлиари" [2]. Улар туркумига қуйидагилар киради: 1) Тошкент ислом институти; 2) "Мир Араб" Олий мадрасаси; 3) Ҳадис илми мактаби; 4) "Кўкалдош" ўрта махсус ислом билим юрти, 5) "Саййид Муҳйиддин маҳдум" ўрта махсус ислом билим юрти; 6) "Ҳидоя" ўрта махсус ислом билим юрти; 7) "Муҳаммад ал-Беруний" ўрта махсус ислом билим юрти; 8) "Фахриддин ар-Розий" ўрта махсус ислом билим юрти; 9) "Хожа Бухорий" ўрта махсус ислом билим юрти; 10) "Мир Араб" ўрта махсус ислом билим юрти; 11) "Имом Термизий" ўрта махсус ислом билим юрти; 12) "Ҳадичаи Кубро" ўрта махсус ислом билим юрти; 13) "Жўйбори Калон" ўрта махсус ислом билим юрти [2]. Бундан ташқари мамлакатда Тошкент ислом университети ва Ўзбекистон ислом Академияси фаолият олиб борди, 2018 йилда улар давлат раҳбарининг Қарори билан Ўзбекистон халқаро ислом академиясига бирлаштирилди. Шунингдек, "ўзга конфессиялар профессионал таълим муассасаларидан Тошкент православ ва Тошкент протестант семинариялари фаолият кўрса-таётганини таъкидлаш ўринли" [2]. Кўриниб турибдики, мамлакатда анча сама-рали ва салмоқли профессионал диний таълим тизими шаклланиб улгурди.

Бироқ дунёвий таълим муассасаларидаги динга оид академик таълим аҳволини самарали деб бўлмайти. Хусусан, умумтаълим мактабларида диний таълим "Тарбия" фани доирасида амалга оширилмоқда. Саноқли мавзулар ёрдамида болаларга турли динларнинг келиб чиқиши, уларнинг асосий гоя-лари, ижтимоий аҳамияти тўғрисидаги билимларни етказиб бўлмаслиги ой-дек равшан. Бундай ёндашув динлар тўғрисида юзаки тасаввурларни шакл-лантиришга имкон беради, холос. Ваҳоланки, кўпконфессияли мамлакат ша-роитида болалар ёшлигиданоқ турли динлар тўғрисида атрофлича маълумот-ларга эга бўлишлари зарур. Фақат шундай ҳолдагина уларни ўзга конфессия-ларга ҳурмат руҳида вояга етказиш, бошқа дин вакиллари билан ҳамжиҳат-ликда ҳаёт кечиришга тайёрлаш мумкин бўлади.

Лицей, коллеж ва техникумларда ҳам диний билимларни етказиш масаласига жиддий эътибор берилгани йўқ. Бу масала билан шуғулланадиган на бир ўқув фани мавжуд, на аниқ мавзулар шакллантирилган. Ваҳоланки,



ди-ний таълим узлуксиз давом этмоғи, унинг босчичлари бир-бири билан боғ-ланган бўлмоғи зарур, албатта. Ўрта махсус таълим масканидаги диний таъ-лимнинг бесамарлиги ўрта таълим ва олий даргоҳларидаги диний-маърифий ишларни бир-биридан узиб қўяпти. Натижада болаларнинг катта қисмида диний билимларнинг шаклланиши жараёни узлукли характер касб қилапти. Бу ёндашув билан нафақат диний бағрикенгликни, балки ёшларнинг оддий диний қарашларининг муттасил ривожланишини ҳам таъминлаб бўлмайди.

Олий таълим муассасаларидаги диний таълим аҳволини ҳам қониқарли деб бўлмайди. Тўғри, узоқ йиллар давомида олий таълим масканларида таҳ-сил олаётган талабаларга "Диншунослик" фанидан машғулотлар ўтказиб келинди. Бу таҳсил муайян натижаларга эришди, дейиш мумкин. Ҳарқалай, талабаларнинг жаҳон динлари, асосий диний ғоялар ҳақидаги тасаввурлари-ни тизимли равишда кенгайтириш имкониятлари мавжуд эди. Бироқ "Дин-шунослик" фанининг ўқув режаларидан чиқариб ташланиши вазиятни салбий томонга ўзгартирди. "Фалсафа" фани доирасида ажратилган икки академик соат диний таълим бўла олмаслигини исботлаб ўтиришнинг ҳожати йўқ. Бунинг натижасида талабаларда диний бағрикенгликни шакллантириш билан боғлиқ маърифий-тарбиявий вазифалар бажарилмай қолаётир.

Таълим тизимдан кейинги диний таълимнинг эса мутлақо бирор бир конфигурацияси, бирор бир мазмуни ва мақсади, бирор бир шакллари ва услублари кўринмайди. Халқ орасида турли "ҳужраларда", хонадонларда но-қонуний диний сабоқ бериш ҳолларининг учрб тургани сабабларидан бири ҳам шу нуқсон билан боғлиқ. Бундай камчилик, бир томондан, диний бағрикенглик муҳитини асрашга, иккинчи томондан тўғри диний эътиқодни шакллантиришга ҳалал бермоқда.

Юқоридаги ҳолатлар мамлакатда профессионал диний таълимга муқо-бил равишда узлуксиз диний таълим тизимини такомиллаштириш масаласи давр талабига айланганидан далолат беради. Ўзбекистон каби кўп конфессия-ли мамлакатда диний таълим нафақат профессионал характерга, балки умум-ижтимоий хусусиятга ҳам эга бўлмоғи, инсоннинг бутун умри мобайнида давом этмоғи даркор.

Аввало шуни қайд қилиш зарурки, мамлакатдаги узлуксиз диний таъ-лим "Таълим тўғрисидаги" Қонунда белгилаб берилган қуйидаги тамойил-ларга бўйсундирилиши керак: "таълим устуворлигининг тан олинлиши; таълим олиш шаклини танлаш эркинлиги; таълим соҳасида камситишларга йўл қўйилмаслиги; таълим олишга доир тенг имкониятларнинг таъминланиши; таълим ва тарбияга миллий ҳамда умуминсоний қадриятларнинг сингдирилганлиги; таълим ва тарбиянинг инсонпарварлик, демократик хусусияти; таълимнинг узлуксизлиги ва изчиллиги; ўн бир йиллик таълимнинг ҳамда олти ёшдан етти ёшгача бўлган болаларни бир йил давомида умумий ўрта таълимга тайёрлашнинг

мажбурийлиги; давлат таълим стандартлари ва давлат таълим талаблари доирасида таълим олишнинг ҳамма учун очиклиги; ўқув дастурларини танлашга доир ёндашувнинг ягоналиги ва табақалаштирилганлиги; инсоннинг бутун ҳаёти давомида таълим олиши; жамиятда педагогларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг кафолатланганлиги; таълим тизимининг дунёвий хусусиятга эгалиги; билимлилик, қобилиятлилик ва истеъдоднинг рағбатлантирилиши; таълим тизимида давлат ва жамоат бошқарувининг уйғунлиги; таълим фаолияти соҳасидаги очиклик ва шаффофлик" [5].

Умумтаълим мактабларидаги диний таълим мактабнинг маърифий вазифасига мос бўлиши керак. Маълумки, мактабнинг асосий вазифаси ёш авлодни мустақил ҳаётга тайёрлашдан иборат. Мустақил ҳаёт кечирish учун эса муайян билимлар тизимига эга бўлиш тақозо қилинади. Бундай билимлар туркумига диний билимлар ҳам киради. Чунки диний билимларда инсон маълум маънавий тажрибалари мужассам топган, бу тажрибалардан воқиф-лик хусусан ҳаётни тўғри ташкил қилиш имкони ҳам беради. Шунинг билан бир қаторда, диний билимлардан хабардорлик диний бағрикенгликни шакл-лантиришнинг илк пойдевори ҳисобланади. Мактабда болаларга диний таъ-лим бериш учун уни ўзга фанлар доирасида муайян мавзулар орқали амалга оширишнинг ўзи кифоя қилмайди, деб ҳисоблаймиз. Бизнинг фикримизча, катта синфларнинг ўқув режаларига "Жаҳон динлари" фанининг киритилиши бу борадаги ўқув ишлари характерини тубдан ўзгартирган бўларди.

Албатта, бундай фандан самарали таҳсил бериш учун янги авлод дарсликлари ва ўқув қўлланмаларини яратиш, болалар руҳиятини инобатга олган ҳолда ўқув лўғатлари ва бошқа ўқув адабиётларини тайёрлаш керак бўлади. Бундай ёндашув узлуксиз диний таълимнинг бошланғич нуқтасини шакллантириш имконини беради.

Умумтаълим мактабларидаги таълим жараёнидан фарқли ўлароқ, ўрта махсус таълимда жаҳон динларига оид маълумотлар кенгайтирилган ҳолда тақдим қилиниши даркор. Айни пайтда мазкур маълумотлар болаларни тегишли мавзуларда мантиқий фикрлашга ҳам одатлантириши керак. Ана шундагина болаларнинг мактаб даврида ола бошлаган диний билимлари, ўзга дин вакилларига оқилона муносабат билан боғлиқ малакалари мустаҳкамлана боради.

Ёшларга диний таълим беришда олий таълимнинг алоҳида ўрни бор. Чунки у шахснинг билимлари ва малакаларини яхлит тизимга солади, уни мустақил шахс сифатида вояга етказди, ижтимоий позициясини қарор топ-тиради. Олий таълим олган инсоннинг маданий савияси жамиятнинг яқин келажакдаги маънавий-руҳий ҳолати характерини белгилаб беради. Агар бундай шахс юксак маданий савияга, жумладан мустаҳкам диний билимлар тизими, ўзга конфессия вакиллари ҳақидаги прогрессив тасаввурларга эга бўлса, жамиятда ҳам диний бағрикенглик муҳити ҳукм суради. Шахснинг олий таълим давомида бундай билимлардан бебаҳа

Хулоса қиладиган бўлсак, диний глобаллашув шароитида диний бағрикенглик гояларини кенг тарғиб ва ташвиқ қилиш, жамиятдаги диний бағрик-енглик муҳитини асраб-авайлаш, жамият аъзоларини ўзга дин ва унинг ва-килларига сабр-тоқат билан муносабатда бўлишга одатлантириш учун энг аввало узлуксиз диний таълим тизимини такомиллаштириш зарур бўлади. Бунинг учун мамлакатимизда диний таълим борасида кўп асрлар давомида тўпланган тажрибаларни умумлаштириш, профессионал диний таълим тизи-мига муқобил равишда дунёвий таълим муассасаларидаги динга оид акаде-мик таълимни ривожлантириш керак бўлади. Узлуксиз диний таълимнинг "Таълим тўғрисидаги" Қонунда белгилаб берилган тамойилларга

бўйсунди-рилиши, мактаб, коллеж, лицей ва техникумларда "Жаҳон динлари", олий таълим муассасаларида "Диншунослик" фанининг ўтилиши, меҳнат жамоа-лари ва маҳаллалардаги маърифий тадбирлар доирасида диний мавзуларга бағишланган ўқув курсларнинг ташкил этилиши кишиларнинг диний савод-хонлигини юксалтиради, уларнинг жаҳон динлари ҳақидаги тасаввурларини кенгайтиради ва пировардида жамиятдаги диний бағрикенглик муҳитини мустаҳкамлашга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР

- 1.Бобожонова Ф.Х. Бухоро мадрасалари – маънавият дурдонаси.// Scientific progress, 2021, №1.- 363-б.
- 2.Остонов Ж. Ўзбекистонда диний таълим: муаммо ва истиқболлар.// tarjumon.uz, 2022, 11 апрель.
- 3.Султонов Ў.ХИХ аср Тошкент мадрасалари.// shosh.uz.
- 4.Ҳасанов А. Ўтмишда мадраса таълими.// hidoyat.uz, 2020, 21 ноябрь.
- 5.Ўзбекистон Республикаси Қонуни. "Таълим тўғрисида".// lex.uz/docs/5013007.

Аннотация: Ушбу мақолада мустақиллик шароитида диний бағрикенгликни мустаҳкамлаш омиллари, фаолият юритаётган мадрасалар, уларнинг тарихига оид маълумотлар умумлаштирилган. Шунингдек, глобаллашув шароитида диний бағрикенглик ғояларини кенг тарғиб ва ташвиқ қилиш, жамиятдаги диний бағрикенглик муҳитини асраб-авайлаш каби масалалар таҳлил этилган.



MUSTAQILLIK YILLARIDA MUSIQA TA'LIMI TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR VA YANGILANISHLAR

Махманова Моҳира,
Иқтисодиёт ва педагогика университети

Калитли сўзлар: мусиқа, таълим, фармон, қарор, санъат, конкурс, чолғу асбоби, истеъдод, кўрик-танлов, дарслик, ўқув қўлланма, ташаббус, концерт, дастур

Ўзбекистон вилоятларидаги деярли барча шаҳар ва туманларда мусиқа мактаблари фаолияти йўлга қўйилди. Масалан, биргина Қашқадарё вилоятида 18 та мусиқа мактаби ишлаб турди⁴. Ушбу вилоятда махсус мусиқа таълимининг асосий марказларидан бири Қарши Давлат санъат билим юрти эди. Бу таълим муассасасида 1994-1995 ўқув йилида 9 та бўлимда 195 нафар талаба таҳсил олди⁵. Шунингдек, вилоятнинг Нишон туманида 2 та мусиқа мактаби фаолият олиб бориб, улардаги 190 нафар ўқувчига 26 нафар ўқитувчи таълим-тарбия бердиб.

Мусиқа мактаблари моддий-техника базасини мустаҳкамлаш иши давлат ва ҳукуматнинг асосий эътиборидаги масалалардан бирига айланди. Масалан, 1997 йил Нишон тумани мусиқа мактаби биносини қайта таъмирлаш учун 200 минг сўм миқдорида маблағ ажратилди¹. Қарши тумани мусиқа мактаби намунавий лойиҳа асосида қурилган бинода фаолият олиб бориб, мазкур мактабда 80 ўқувчига 12 нафар ўқитувчи мусиқа сирларини ўргатди².

Қорақалпоғистон Республикасида ҳам бу даврда мусиқа таълими ишини яхшилаш юзасидан доимий тадбирлар олиб борилди.

Ж.Шамуратов номидаги Нукус санъат коллежи ва Қ.Ойимбетов номидаги Нукус маданият коллежларида таълим-тарбия ишлари таълим тўғрисидаги мавжуд қонунлар асосида амалга оширилди³. Нукус санъат коллежида катта таъмирлаш ишлари олиб борилиб, янги ўқув биноси, ётоқхона қуриб битказилди. Нукус маданият коллежи биноси ҳам қайта таъмирланиб, ўқув хоналарининг ҳолати яхшиланди, ўқув дарсликлари, қўлланмалар, дастурлари янгидан ишлаб чиқилди. Мусиқа синфлари тўла халқ чолғу асбоблари билан таъминланиб, ўқув хоналари замонавий техник жиҳозлар билан таъминланди⁴.

Мустақиллик йилларида миллий мусиқа санъатига бўлган эътиборнинг кучайиши туфайли, мусиқа билим юртларида миллий анъанавий созандалиги ва хонандалиги йўналишлари бўйича мутахассислар тайёрлаш иши кучайтирилди.

Мусиқа билим юртлари моддий-техника базаси мустаҳкамлаб борилди.

1992 йил Термиз Давлат musiqa билим юрти талабалари учун ётоқхона биноси қурилди. Шунингдек, musiqa таълими муассасаларининг кутубхона жамғармаси ҳам китоблар билан тўлдирилди. Масалан, Термиз Давлат musiqa билим юрти кутубхонасида 13948 донa китоблар жамғармаси бўлиб, шундан 12077 тасини musiqaга оид адабиётлар ташкил этди⁵.

Республиканинг турли шаҳарларида фаолият олиб борган musiqa билим юртларида жуда кўплаб иқтидорли ёшлар таълим олиб, улар турли Халқаро, республика кўрик-танловларида фаол иштирок этдилар ва совринли ўринларни қўлга киритдилар.

Ўзбекистонда мактаб ўқувчилари орасидан истеъдоддиларни излаб топиш, уларнинг ижодига ғамхўрлик қилиш мақсадида ўқувчилар ўртасидаги кўрик-танловлар ўтказиб борилди. Масалан, "Санъат гунчалари" номли мактаб ўқувчилари кўрик-танловлари доимий равишда ўтказиб борилди. 1994 йил Қашқадарё вилоятида ушбу кўрик-танловда иштирок этган 18 нафар мактаб ўқувчиси вилоят маданият ишлар бошқармасининг "Фахрий ёрлиғи" билан тақдирланди¹. 1994 йили Тошкент шаҳрида ўтказилган республика кўрик-танловида Урганч musiqa билим юртидан К.Мусаев ва М.Худойбергеновлар қатнашиб, биринчи ўринни эгаллаб, пул мукофоти олди².

Тошкент Давлат консерваторияси талабалари нафақат, республика, балки жаҳон миқёсидаги кўрик-танловларда ҳам иштирок этиб, ғолибликни қўлга киритдилар. 1993 йил Франциянинг Эпиналь шаҳрида бўлиб ўтган XIV Халқаро пианиночилар кўрик-танловида консерваториянинг талабаси Гулно-ра Алимова қатнашиб, ғолиб бўлди. У шу йили Португалиянинг Порто шаҳрида бўлиб ўтган X Халқаро пианиночилар кўригида иккинчи мукофотга сазовор бўлди³.

Тошкент Давлат консерваторияси профессор-ўқитувчилари узлуксиз равишда концерт-ижрочилик ишларини ҳам олиб бордилар. Масалан, 1992–1993 ўқув йилида Шарқ musiқаси факультети ўқитувчиларидан А.Лутфуллаев (чанг), К. Назиров (ғижжак), Б.Мирфаёзов (рубоб), А.Одилов (чанг), Р.Ҳожиева (датор) ва бошқалар радио, телевидение орқали турли халқ байрамлари, концертларида чиқишлар қилиб турдилар⁴. Бундан ташқари ассистент-стажёрларнинг ҳисобот концертлари ҳам ўтказиб турилди. Масалан, 1992 йил 5 декабрда Норқул Жўраевнинг рубоб чолғу асбоби бўйича ва 1993 йил 17 февралда Қаҳрамон Назировнинг ғижжак чолғу асбоби бўйича ҳисобот концертлари ўтказилди⁵. Консерваториянинг бошқа факультетлари профессор-ўқитувчилари ҳам турли концерт дастурида иштирок этиб турдилар. Масалан, хонандалик ва хор дирижёрлиги факультетидан профессор С.Қобулова 1995 йил январ, феврал, март ва июн ойларида телевидение орқали 4 маротаба чиқиш қилди. Радиода унинг ижросидаги "Мақомлар" ёзиб олинди. Жумладан, профессор Н.Х.Хошимов-нинг А.Навоий номли опера ва балет театрида, доцент



У.Тошматовнинг консерваториянинг катта залида концертлари ўтказилди¹.

1997–1998 ўқув йилида консерваториянинг оркестр факультети эстрада ижрочилиги кафедраси аъзолари 5 та концерт дастурини тайёрладилар. Эстрада санъати бўлимининг ҳисобот концерти 1998 йил 11 июнда бўлиб ўтди. Эстрада ижрочилиги кафедрасининг мудири Э.Ш.Салихов 1998 йил 20 майда 12 та эстрада қўшиқларидан янги альбом тақдимотини ўтказди².

Муסיқа мактаблари кенгайтирилиб, санъат мактабига айлантирилди. Бу турдаги мактабларда қўшимча рақс, амалий безак каби синфлар ташкил этилди. Масалан, 1996 йил 13 июнда Қашқадарё вилоят ҳокимлигининг "Айрим туманлардаги муסיқа мактабларини санъат мактабларига айлантириш тўғрисида"ги қарорига мувофиқ вилоятнинг Китоб, Шаҳрисабз, Яккабоғ, Ғузор ва Нишон туманларидаги муסיқа мактаблари 1996 йил сентябрдан бошлаб, санъат мактабларига айлантирилди³.

Болалар муסיқа ва санъат мактабларини янгидан қуриш учун майдонларни танлашда тасдиқланган нормативларга мувофиқ туман ва шаҳарларнинг турар жой массивларида жойлаштириш, мазкур мактабларни ривожлантириш ва моддий-техника базасини яхшилаш, шу жумладан, уларни жиҳозлаш учун имтиёзли шартлар асосидаги хорижий кредитлар ва грантларни жалб этишга эътибор қаратилди.

Олиб борилаётган тадбирлар ўз мазмун-моҳиятига кўра ёшларнинг миллий ва жаҳон муסיқалари намуналаридан кенг баҳраманд бўлиши учун зарур шарт-шароит яратиш, бошланғич муסיқий таълим тизимини тубдан такомиллаштириш, болалар муסיқа ва санъат мактабларини ривожлантириш-га кенг йўл очди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 1996 йил 31 декабрда "Республика муסיқий таълим, маданият ва санъат ўқув юртлари фаолиятини яхшилаш тўғрисида"ги Фармони эълон қилинди¹.

Фармон ижросини таъминлаш юзасидан республикадаги маданият ва санъат йўналишидаги ўқув муассасаларда қатъий чора-тадбирлар олиб борилди. Қарши маданият техникуми муסיқа йўналиши бўйича мутахассис тайёрлайдиган асосий билим масканларидан бири сифатида бу даврда ҳам ўз фаолиятини давом эттирди. 1996–1997 ўқув йилида ушбу ўқув юртида 502 нафар талаба таҳсил олди, уларга 65 та ўқитувчи таълим-тарбия берди. Бу муסיқа масканида "Шаҳноз" номли дуторчилар ҳамда "Мақом" ансамбли ишлаб турди².

Тошкент Давлат консерваторияси Ўзбекистонда муסיқа таълим тизимининг асосий маркази сифатида республикада ўтказилган муסיқа соҳаси тадбирларининг бошида турди ва консерватория кафедралари профессор-ўқитувчилари маданият соҳасининг турли йўналишлари бўйича ташкил этилган илмий-амалий анжуманларда фаол иштирок этдилар. Масалан, 1995 йил 3–6 апрель кунлари Бухоро Давлат санъат билим юртида Ўзбекистон Республикаси Маданият ишлари вазирлиги тасарруфидаги Олий

ва ўрта махсус санъат ва маданият ўқув юртларининг "Анъанавий ижрочилик таълими муаммолари: назария ва услубиёт" мавзuidaги илмий-амалий конференциясида консерватория ўқитувчиларидан Р.Қосимов "Тошкент-Фарғона маҳаллий ижрочилик услублари ва улардан ўқув амалиётида фойдаланиш", ўқитувчи У.Қодиров "Ғижжақда жўрнавозлик", И.Тошпўлато-ва "Талаба хонандаларга дутор ўргатиш тажрибасидан" мавзуларида маърузалар қилди.

2014 йилда Қашқадарё вилояти Қамашти туманида 6-сонли болалар мусиқа ва санъат мактабининг бугунги кун талабига тўла жавоб берадиган янги биноси фойдаланишга топширилди.

"Машғулотларни замонавий бинода бошладик, - деди мактаб мусиқа ўқитувчиси Хуршида Тўрақулова. - Бу ерда чолғу ва рақс сирларини ўрганиш учун махсус хоналар, тасвирий санъат, заргарлик, ҳайкалтарошлик устахоналари, 200 ўринли концерт зали ва бошқа қулайликлар мавжуд. Бу қамаштилик ёшларнинг санъат сирларини пухта эгаллашлари учун катта имконият бўлди".

150 ўринли таълим муассасасини бунёд этиш учун Болалар спортини ривожлантириш жамғармаси томонидан 2 миллиард 600 миллион сўмлик маблағ йўналтирилди.

2019 йил 17 апрелда Қашқадарё вилоят мусиқали драма театрида Қарши ихтисослаштирилган санъат мактабининг ўзбек халқ чолғулари оркестри жамоасининг концерти уюштирилди.

Ёшларнинг санъатга бўлган қизиқишини янада ошириш мақсадида вилоят маданият бошқармаси, Қарши ихтисослаштирилган санъат мактаби жамоаси ҳамкорлигида тайёрланган концерт дастурига болалар мусиқа ва санъат мактаблари ўқувчилари, мусиқа санъати ихлосмандлари, кенг жамоатчилик таклиф этилди.

Оркестр дастури репертуаридан "Уйғониш", "Ишқ айлади", "Сўлим баҳор", "Озарбайжон марвариди", "Мелодрама", "Обливион", "Қўғирчоқ қўшиғи", "Гранада" каби ўнлаб ўзбек ва жаҳон мусиқа дурдоналари жой олган.

Айниқса, яққалон ижроларда республика ва халқаро танловлар совриндорлари, истеъдодли ижрочилар Малика Пармонова, Содиқ Сайимов, Илёс Муҳаммадиев, Алибек Мадатов, Шехреза Омонованинг чиқишлари томошабинлар томонидан олқишлар билан кутиб олинди.

Бугун истеъдодли ёшлар томонидан ижро этилаётган куйларни тинглаб, уларнинг ижро маҳоратига тан берасиз. Бундай истеъдод эгаларининг жаҳон саҳналарида бир қатор муваффақиятларга эришаётганидан эса қалбинг ғурурга тўлади.

Ўз вақтини тўғри тақсимлаб, вақтини мазмунли ўтказётган ёш йигит-қизлардан жамиятга фойдаси тегадиган инсонлар, ўз соҳасининг билимдонлари етишиб чиқиши аниқ. Давлатимиз раҳбари томонидан илгари



сурилган, ёшлар таълим-тарбияси учун қўшимча шароитлар яратиш, хотин-қизлар бандлигини оширишга қаратилган комплекс чора-тадбирларни ўз ичига олган бешта ташаббус ҳам шу мақсадларга хизмат қилади. Ёшларни маданият ва санъат муассасаларига кенг жалб этиш шу ташаббусларнинг биринчисидир.

Болалигиданоқ санъатта ошно бўлган кишидан ёмонлик кутиб бўлмайди, – дейди Китоб туманидаги 10-сонли мусиқа ва санъат мактаби директори. Мактабда 260 нафардан зиёд ўқувчи таҳсил олади. Уларга халқ чолғучилиги, эстрада ва анъанавий хонандалик, тасвирий ва амалий санъат, рақс ва театр каби 12 та йўналиш бўйича сабоқ берилади.

Шу мактабнинг бошланғич синф ўқувчиси Умиджон Ваҳобов айна пайтда 7 ёшидан бошлаб, зарбли чолғу асбобларини чалишга жуда қизиқиши баланд. Ёш истеъдод соҳиби ёш бўлишига қарамасдан туман ва вилоят миқёсидаги йирик тадбир ва танловларда кўзга кўриниб улгурди. "Камалак юлдузлари" кўрик-танловининг ҳудудий босқичида биринчи даражали диплом билан тақдирланган.

Китоб туманидаги ушбу болалар мусиқа ва санъат мактабида Умиджонга ўхшаган қобилиятли ёшлар талайгина. Албатта, уларни ҳеч ким шу йўналишни ўрганишга мажбур қилмаган. Иштиёқ ва ҳавас, санъатта ошно бўлишга ундаган асосий омиллардир. Бинобарин, бу интилиш келажақда уларни янада юқори марраларни забт этиши учун замин яратади. Давлатимиз раҳбари бошлаб берган бешта муҳим ташаббуснинг самараси ҳам ана шундай ёшларимиз мисолида намоён бўлмоқда.

Хуллас, мустақиллик йилларида таълим тизимида чуқур ислохотларни амалга оширишда махсус мусиқа мактаблари фаолиятини қайтадан ташкил этиш асосий масалалардан бири ҳисобланиши ва мусиқий таълим тизимини такомиллаштириш, ўқувчи ёшлар маданий савиясини юксалтириш, улар орасидан истеъдодларни танлаб олиш, ўқувчиларнинг миллий ва жаҳон санъатининг юксак намуналаридан кенг баҳраманд бўлиши учун зарур шарт-шароитлар яратиш, хусусан, ёшларнинг турли халқаро танловларда иштиро-қилиши таъминлаш вазифалари бугунги куннинг энг долзарб масалаларидан бирига айланди.

Мустақиллик йилларида мусиқа таълими ўқув муассасалари фаолияти тубдан ислох қилиниб, ўқув режалари, дастурлари, дарсликлари янгидан яратилди ва уларда миллий мусиқа таълимига алоҳида аҳамият берилди. Ислохотлар жараёнида мусиқа таълимини миллий-маданий анъаналар асосида қайта йўлга қўйиш, мусиқа мактаблари ва коллежлари моддий-техника ва услубий таъминотини яхшилаш, малакали кадрлар билан таъминлаш масалаларига жиддий эътибор қаратилди.

"Ўзбекистон Республикаси умумтаълим мактабларида мусиқа таълим-тарбияси концепцияси" лойиҳаси ишлаб чиқилди. Лойиҳада мусиқа таълимининг миллий асослари, мазмуни, тузилиши, соҳа кадрларига

қўйилаётган талаблар хусусида фикр юритилди. Ўзбекистонда умумтаълим мактабларининг синф ўқувчиларига ҳафтада икки соатдан мусиқа дарслари ўқитила бошланди. Мусиқа мактаблари ўқувчилари учун мақом ансамбли ва фольклор ансамбллар дастури ишлаб чиқилиб, нашр этилди.

Хуллас, мусиқа таълими соҳаси мустақиллик йилларида том маънодаги поғонага қўтарилиб, тизим фаолиятини йўлга қўйиш, республиканинг турли шаҳар ва туманларида мусиқа мактабларини ташкил этиш, уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, малакали кадрлар билан таъминлаш юзасидан ҳукумат томонидан қатор чора-тадбирлар белгиланди ва уларни амалиётга жорий қилиш долзарб вазифалар қаторидан жой олди. Қўрилган чора-тадбирлар белгиланган вазифаларнинг муваффақиятли бажарилиши натижасида ёш талантлар мусиқа сирларини қунт билан ўзлаштириб, жаҳоннинг нуфузли халқаро танловлар, конкурсларида иштирок этиб, имтиёзли ўринларни эгалладилар.

Аннотация: Ушбу мақолада мустақиллик йилларида мусиқа таълими тизими фаолиятига оид қарор ва фармонлар ҳамда мусиқа таълими тизимидаги ўзгаришлар, қўлга киритилган ютуқлар таҳлил келтирилади.

Abstract: In the years of independence, decisions and decrees on the activities of the music education system, as well as changes in the music education system and achievements are analyzed.



XORIJIY TIL O'QITISHDA DUCH KELINADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING OLDINI OLISH UCHUN QO'LLANILADIGAN METODLAR

Bo'riyeva Sanobar Farhod qizi
Qashqadaryo yuridik texnikumi

Kalit so'zlar: Chet tili, ingliz tili predmeti, tabiiy muhit, sun'iy nutqiy vaziyatlar, tanqidiy davr, lingvistik kompetentsiya kommunikativ kompetentsiya.

Chet tili – bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o'rganish va o'rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchi-talabanning to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi.

Yuqoridagi fikrlarni amalga oshirish uchun ona tili hamda chet tili o'rtasidagi farqlarni tasniblab o'rganishimiz kerak. Shu sababli ham taniqli metodistlardan T.Q.Sattorov ingliz tili predmetini quyidagi pedagogik-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holdan ona tili bilan taqqoslab tasniflaydi :

1. Ona tili va ingliz tilida muloqot uchun nutqiy muhit keskin farq qiladi.

Darsdan tashqari paytlarda o'quvchida ingliz tilida muloqot qilish uchun muhit deyarli mavjud emas. Ona tili uchun doimo tabiiy muhit mavjuddir.

2. Ona tili insonning kundalik faoliyatiga singib ketadi. Ingliz tili uchun esa bunday imkoniyat mavjud emas. Ingliz tili darslarida o'quvchilarga muloqotni o'rgatish maqsadida sun'iy nutqiy vaziyatlarni vujudga keltirish zarur.

3. Inson bolasi tevarak-atrofni ona tili yordamida idrok etib tushunadi va kishilar bilan muloqotga kiradi. Ingliz tilini o'rgatishda ahvol umuman o'zgacha.

Tilning talaffuz, grammatik va leksik tomonlari o'rganiladi, ingliz tilida fikr bayon etish va idrok etib tushunish amaliy maqsad maqomini oladi.

Ona tilini o'quvchi amaliy tarzda egallaydi. Ikkinchi tilda amaliy malakalar, avval, qisman hosil qilingan, nazariy bilimlar ona tilidagidan kamroq hajmda bayon etiladi, albatta. Ingliz tili o'rganishda esa qoida (oddiy nazariy bilim)lar

amaliy ko'nikma va malakalarni egallashni tezlashtirish (intensifikatsiya) va yengillashtirish (optimizatsiya) maqsadlariga bo'ysundiriladi, o'quv jarayonida nutqiy amaliyot (kommunikatsiya) birlamchi vazifaga aylanadi.

Maktabda o'zbek, rus va ingliz tillarini o'qitishga qo'yiladigan dasturiy talablardan biri mazkur o'quv fanlari orasidagi aloqadorlikni ta'minlashga imkoniyat yaratishdir. Ta'limda o'quv fanlarining imkoniyatlarini birlashtirish ko'zlangan maqsadga erishishning asosiy yo'li sanaladi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, tilni o'rganish uchun aniq belgilangan "tanqidiy davr" yoki tilni o'rganish eng oson bo'lgan hayot davri mavjud bo'lib, eng yahshi davr tadqiqotlarga ko'ra tug'ilishdan 18 yoshgacha davom etadi, bu o'ylaganimizdanda uzoqroqdir. Biroq, agar ota-onalar ona tilida so'zlashuvchining nutq ravonligiga erishishni xohlasalar, bolalar uchun 10 yoshdan boshlab til o'rganishni boshlash yaxshiroqdir - va ular qanchalik tezroq boshlasa, ularning imkoniyatlari shunchalik yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, tilni erta o'rganish boshqalar, turli dunyolar va madaniyatlar va fikrlash usullari bilan muloqot qilishni ochib beradi va gapirish, yashash yoki fikr yuritishning yagona yo'li yo'qligini anglab yetadi. Bir paytlar chaqaloqlar va chaqaloqlarning bir nechta tillarga ta'sir qilishi nutq rivojlanishini kechiktirishi mumkin degan qo'rquv bor edi. Ammo Amerika Pediatriya Akademiyasi ma'lumotlariga ko'ra, bu afsona ekanligi isbotlangan. Darhaqiqat, ikki tilda so'zlashishini bolalarning aksariyati 1 yoshida birinchi so'zlarini gapiradi va 2 yoshida ikki so'zli iboralarni ishlatadi, bu faqat bitta tilni o'rganadigan bolalar uchun bir xil rivojlanish bosqichlari hisoblanadi.

Xitoyda 1990-yillarda ingliz tili majburiy kurs sifatida boshlang'ich maktabning beshinchi sinfida boshlangan. Shundan so'ng, ingliz tilini o'qitish dasturlari taxminan 2000-yillarda boshlang'ich maktabning uchinchi sinfida ingliz tili kurslari o'tkazilishini talab qilish uchun yana o'zgardi. Vaqt o'tishi bilan yangi siyosat bolalarning erta yoshida chet tilini o'rgatish dasturlarini erta boshlash muhimligini ta'kidlaydi. Xitoy hukumati so'nggi yillarda ingliz tilini chet tili sifatida maktabda asosiy va majburiy o'quv dasturi sifatida faol ravishda ta'kidlamoqda. Shuning uchun, ingliz tili aslida boshlang'ich maktabda birinchi sinfda talab qilinadi. Ta'lim instituti chet tillarini o'qitish uchun yangi chet tillarini o'rganish dasturlarini taklif qilganda, hukumat uni qo'llab-quvvatlashi va uni amalga oshirish uchun mablag' sarflashi kerak. Kurs direktori kursni rejalashtirayotganda, chet tili kursi haqida ko'proq ma'lumot olish uchun o'qituvchilar bilan bir qatorda talabalar bilan maslahatlashishlari kerak, masalan, vaqt, kitoblar. Kurs direktori chet tilini o'qitish uchun o'quv materiallarini tanlashda o'qitish mazmuni va o'quv tuzilmasini ma'lum darajada aniqlashi kerak. Ta'lim muassasasi ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlardan xalqaro nashriyotlarning kitoblari yoki materiallarini taqdim etishi kerak.

O'qituvchilarimiz o'quv materiallarini tanlashda haqiqiy materiallar va



topshiriqlarga asoslangan tarkibni hisobga olishlari kerak. Ko'proq haqiqiy materiallar va tadbirlarni o'z ichiga olgan o'quv materiallari o'qituvchilarning o'qitish metodikasi va usullariga xizmat qiladi. O'qituvchilarimiz yosh o'quvchilarga chet tilini o'rgatayotganda, biz ularning shaxsiyati, o'rganish uslubi, o'rganish strategiyasi, qiziqishi, motivatsiyasi va boshqalarga ko'proq e'tibor berishimiz kerak. Bu omillarning barchasi ularning til o'rganishiga ta'sir qiladi va e'tiborga olinishi kerak. Biz yosh o'quvchilarning e'tiborini grammatika amaliyotining sezgirligidan kommunikativ sinf muhitiga jalb qilish yo'lini tushunishimiz kerak. Bizning chet tili o'qituvchilarmiz uchun muhim narsa shundaki, ularning o'qitish maqsadi yosh o'quvchilarda chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqni uyg'otishdir, shunda ular chet tilini yakuniy o'rganishda lingvistik kompetentsiya va kommunikativ kompetentsiyaga erisha oladilar.

O'qituvchining ingliz tili o'rgatish borasidagi harakatlari va o'quvchining ko'plab mashqlar bajarishi natijasida ingliz tili belgilangan darajada egallanmasligi mumkin. Bunga sabablardan biri sifatida darslik yaratishda Yevropa tajribalariga taqlid qilinishi va ta'lim sharoitini inobatga olinmaganligini ko'rsatish mumkin. Chunki ayrim darsliklarda nutqiy malakalarning egallanishiga hizmat qiluvchi mashqlarga ustuvor ahamiyat qaratilgan bo'lsa, ayrimlarida tilga oid malakalar egallanishiga xizmat qiluvchi mashqlar miqdori sezilarli darajada ko'p. Bizningcha ingliz tili o'qitishda nutqiy va lisoniy kompetensiyalarning teng egallanishiga zamin yaratadigan bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantiruvchi mashqlarning miqdoriy ratsioniga muhim ahamiyat qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Birdsong D., Bialystok E., Hakuta K. Second Language Acquisition and the Critical Period Hypothesis. - L.: Lawrence Erlbaum associates publishers, 1999.
2. Broek S., Inge van den Ende. The implementation of the Common European Framework for Languages in European education systems. - Brussels, European Union, 2013.
3. Broughton G., Brumfit Ch., Flavell R., Hill P., Pincas A. Teaching English as a Foreign Language. - L.: Routledge, 2003.
4. Brown D.H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. - NY.: Longman, 2007.
5. Burns A., Richards J.C. The Cambridge Guide to Pedagogy and Practice in Second Language Teaching. - NY: Cambridge University Press, 2012.
6. Сатторов Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на

материале английского языка): Автореф. дис ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2000.

7. Синельников А. П. Психология обучения иностранным языкам. – Х.: Основа, 2009.

Annotatsiya. Hozirgi vaqtga kelib yurtimizda chet tilini o'qitish va uni fan sifatida ilgari surish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Sababi shundaki, chet tilini o'rganish ularni yoshlar o'rtasida tadbiq qilish orqali katta imkoniyatlar ochilishi mumkin. Chet tilini o'qitish yangi texnologiyasi hamda o'quvchi yoshlarning o'zlashtirish ko'rsatkichlariga qarab fanni rivojlantirish esa har bir pedagog oldiga qo'yilgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Annotatsiya. Nowadays, teaching a foreign language and promoting it as a science has become one of the urgent issues in our country. The reason is that learning a foreign language can open up great opportunities by applying them among young people. The new technology of teaching a foreign language and the development of the subject depending on the learning indicators of the students is one of the urgent problems for every pedagogue.

Аннотация. В настоящее время обучение иностранному языку и популяризация его как науки стало одной из актуальных проблем в нашей стране. Причина в том, что изучение иностранного языка может открыть большие возможности, применяя его среди молодежи. Новая технология преподавания иностранного языка и развитие предмета в зависимости от показателей обучаемости учащихся является одной из актуальных проблем для каждого педагога.



AHOLI VA YOSHLARNING TOZA ATROF-MUHITDA YASHASH HUQUQINING UMUMIY TASNIFI

Timirova Shirin Shavkatovna
Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi

Kalit so'zlar: Ekologiya, atrof-muhit, ekotizim, globalizatsiya, orol fojiasi, BMT.

Mustaqillik yillaridan buyon O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va bu bo'yicha muhim huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlar ishlab chiqib va amalda tatbiq etishga qaratilgan harakatlar amalga oshirilmoqda. Atrof-muhit himoyasi, tabiiy resurslardan rejali foydalanish va ularni qayta tiklanishi, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirilishida davlat siyosatini samarali amalga oshirilish, bu yo'nalishdagi davlat boshqaruvi va nazoratni takomillashtirish maqsadida, "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi"ni amalga oshirishga oid davlat dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni amalda tatbiq etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan ishlab chiqilgan, ushbu strategiyada muhim vazifalar o'z ifodasini topgan edi. Bular: mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish, iqtisodiyotni yanada isloh etish, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash bilan bog'liq chora-tadbirlardir. Aynan Harakatlar strategiyasining xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlari doirasida atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish vazifasi alohida band sifatida berilgan. Bundan tashqari, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi "Ajdodlarimizning donishmandlik an'analariга amal qilib, qa'tiy islohatlarni amalga oshirmoqdamiz" nutqida, "Markaziy Osiyoning umumiy suv zahiralaridan oqilona foydalanish" masalasida, "Mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, u yerdagi umumiy suv zahiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o'ta olmaymiz. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotib Antoniu Guterrish janoblarining "suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liq", degan fikrlarini to'la qo'llab-quvvatlaymiz. Ishonchim komilki, suv muammosini hal qilishda mintaqaning to'rt mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga



olishdan boshqa oqilona yo'li yo'q. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining yaxshi qo'shnihilik diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Sirdaryo va Amudaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konvenstiyalar loyihalarini qo'llab-quvvatlashi bildirilgan. Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo'limda – Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O'ylaymanki, bunda ortiqcha izohga hojat yo'q. Dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda. Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to'liq amalga oshirilishi tarafdorimiz"[1] deb Orol dengizi muammosiga alohida to'xtalganlar. Bundan tashqari aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi doirasida global iqlim o'zgarishlari va Orol muammosi ham alohida to'xtalib o'tiladi. Unda bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri – global iqlim o'zgarishlari va uning dunyo davlatlariga salbiy ta'siri. Albatta, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham o'zining ta'sirini o'tkazadi. Ayniqsa, Orolbo'yi hududi ekologik fojining markaziga aylandi. Ushbu davr mobaynigacha mavjud ahvolni yaxshilash uchun bu yerda ikki million gektar yangi o'simlik maydonlari va daraxtzorlar yaratish, tuproq qatlamini shakllantirish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirildi, davlatimiz tashabbusi bilan Orolbo'yi mintaqasi uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida ishonch fondi tuzilganligi va ushbu fond og'ir ekologik hududda yashayotgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish uchun xalqaro hamjamiyatning tayanch platformasi bo'lib xizmat qilishi haqida aytib o'tildi. Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash maqsadga muvofiq bo'lardi"[2].

Ekologik ahvolni yaxshilash, atrof-muhitni himoya qilish iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalaridan tashqari boshqa omillarga ham bog'liqdir. Ular orasida, ayniqsa, ekologik ta'lim va tarbiyaning ahamiyati katta. Bundan ko'rinadiki, bugungi kunga kelib ekologiya fani nafaqat mustaqil fan sifatida shakllandi, balki u mazmunan ham ancha kengayishga ulgurdi. Shu o'rinda aytishimiz lozimki, "Ekologiya" atamasini fanga birinchi bo'lib nemis biologi Ernest Gekkel 1866-yilda bosmadan chiqarilgan "Organizmlarning umumiy morfologiyasi" nomli kitobi orqali fanga olib kirdi. Bu atama yunonchadan olingan bo'lib "oikos" – yashash muhiti, "logos" – ta'limot degan ma'nolarni anglatadi. Yashash muhit – organizmning fiziologik qobig'i hisoblanib, har qanday muhit, shu jumladan, yashash muhiti ham fizik, kimyoviy va boshqa omillar majmuidan tarkib topgan hisoblanadi. Muhit



tushunchasi ham fanda turli ma'nolarni anglatadi. Bular: ekologik, geografik, fizik, falsafiy, ijtimoiy kabilardir. Ekologiya nuqtayi nazaridan muhit tushunchasiga tirik organizmni o'rab turgan fizik qurshovga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga muhit atrof-muhitdagi o'zaro bog'lanishlardagi shart-sharoitlar va ta'sirlar yig'indisi hamdir. Odatda ekologik muhit ikkiga: tabiiy muhit va sun'iy muhitga bo'lib o'rganiladi. Tabiiy muhit deganda suv, quyosh, shamol, havo, yer, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiiy omillardan tashkil topgan muhit tushuniladi. Sun'iy muhit deganda esa, inson tomonidan yaratilgan, bir so'z bilan insonning mehnat mahsuli asosida yaratilgan muhitni ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin. Shu holatlar bilan birga tabiiy muhit va sun'iy muhitlar bir-biri bilan bog'liq ekanligini aytishimiz ham mumkin. Ekologik muhit, yuqorida aytib o'tganimizdek, tabiiy va sun'iy muhit bo'lib, tirik mavjudotlar subyekt va obyekt ta'sirlar sifatida qatnashib, ta'sirlar soni esa tevarak-atrofni saqlab qolish yoki xavf solish sharoitini keltirib chiqaradi. Ekologik muhit muayyan ekologik tizim ham hisoblanib, uni tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy qismlarga ajratish mumkin bo'ladi. Tabiiy ekotizim hayotni rivojlanishiga sabab bo'ladigan yerning holati va noorganik jismlarning majmuidan iborat. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimda esa, insonni o'rab turgan atrof-muhit, ya'ni tabiatga bo'lgan munosabatini bildiradi. Ekologik muhit ikki xil holatda bo'lishi mumkin. Birinchi holatda, muvozanatda, ya'ni tirik organizmlarning hayoti o'zgarmagan shart-sharoitlar va ta'sirlar barqaror holatida muvozanat o'zgarmaydi, aksincha, muhitning shart-sharoitlari va ta'sirlar buzilganda muvozanatsiz holat kelib chiqadi. Ikkinchi holatda, muvozanat buzilgan bunda ekologik muhitning buzilishi atmosferaning, yer osti suvlarining ifloslanishi, qattiq chiqindi moddalarning to'planishi va ozuqaning zaharlanishi, shovqinlarning ko'payishi, radioaktiv moddalar va boshqalarning ta'sirini ortib borishida ko'rishimiz mumkin. Ushbu kurai zaminda tirik organizmlar bir-birlaridan keskin farq qiluvchi o'ziga xos uchta muhitga ajratilgan. Bularni, ya'ni suv va havo o'lik muhitda, tuproq oraliq muhitda va eng oxirgisi organizm tirik muhitdadir. Shular bilan birga har bir hayot muhiti o'z navbatida organizmlar yashashi uchun har xil yashash joylaridan iborat hisoblanadi. Misol uchun, suv: ko'lmak va oqar suv, chuchuk va sho'r suv, chuqur va sayoz, iliq va sovuq holatlarda uchrashi mumkin. Shu bilan birga, havo va tuproq ham nihoyatda xilma-xil yashash joylarini tashkil etadi. Tirik organizmlar o'simliklar, hayvonlar uchun muhit sifatida o'ziga xosdir. Kurai zaminda tirik organizmlar bir-birlaridan keskin farq qiluvchi o'ziga xos muhitlarda tarqalgan. Dastlabki paytlarda hayot suv muhitida kelib chiqqan. Keyinchalik esa, tirik organizmlar quruqlikka chiqib, tuproq hosil bo'lishida qatnashadilar va shundan so'ng, havo va boshqa bir tirik organizmni ichida yoki sirtida ham tarqalganlar. Demak, bizga ma'lum bo'lgan tirik tabiat va uning tarkibiy qismlari hisoblangan hayvonlar va o'simliklar ana shu muhitlarda yashashga moslashganlar. Moslashish ayrim shaxslar, xalqlar tur yoki jamoalarning morfofiziologik, xulqiy va axborot, ya'ni biotsenotik xususiyatlarining majmuidan iborat bo'lib, boshqa shaxslar, xalqlar, tur yoki jamoalar bilan yashash uchun

kurashda g'olib chiqishga sababchi bo'ladigan, shuningdek noorganik muhit omillarining ta'siriga chidamliligini ifodalashi bilan ham ajralib turadi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, mustaqillik yillarda O'zbekistonda ekologiya sohasida juda katta ishlar amalga oshirildi, sababi ko'rishimiz mumkinki, bugungi kunda dunyo bo'ylab global isish va mamlakatimiz sharoitidan kelib chiqqan holda, Orol fojiasini bugungi kun ekologiyasining dolzarb mavzulari sifatida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari ma'lumot sifatida aytishimiz mumkinki, dunyoda ekologiyaning, ya'ni atrof-muhit to'g'risidagi fanning vujudga kelganligini, uning nazariy asoslarini va tarkibiy qismlarini mukammal o'rganib amalda tadbiq etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan ekanligini, buning ildizi XIX asrning 60-yillariga borib taqalishini ko'rib o'tdik.

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra quyidagi taklifni berishimiz mumkin:

-ekologiya masalasi bugungi kunda o'ziga nisbatan butun dunyodan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni talab etmoqda. Bundan ko'rinadiki, atrof-muhitga yetkazilayotga zararlar, uning ifloslanishimi, global iqlim o'zgarishiga sabab bo'layotgan holatlarni olamizmi bular insondan qattiq choralar ko'rishni talab qiladi. Shularni inobatga olgan holda, O'zbekistonda ham, xuddi, Yangi Zelandiyada bo'lgani kabi ekologik sudlarni tashkil etish va qonuniy choralarni kuchaytirish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son

2.O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.12.1992-y., 754-XII-son

3.O'zbekiston Respublikasi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.1993-y., 837-XII-son

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 21-apreldagi № PF-5024 "Ekologiya va atrof-muhit sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" farmoni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2017-y., 5024-son

5.Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi, 19.09.2017-y.

Internet manbalari:

6.www.lex.uz

7.www.norma.uz

8.www.eco.uz

Annotasiya: Ushbu maqolada aholi va yoshlarning toza atrof-muhitda yashash, ekologik ahvolni yaxshilash, atrof-muhitni himoya qilish, ekologik madaniyatda ekologik ta'lim va tarbiyaning qanchalik muhim ekanligi haqida yoritilgan. Shu bilan birgalikda ekologiya fanining atrof-muhitni yaxshilash va unda yashashda huquqiy tasnifining o'rnini va ahamiyati haqida keltirib o'tilgan. Shaxslarning toza atrof-muhitda yashash huquqini ta'minlash bugungi kunning eng muhim



masalalaridan biri hisoblanadi. Sababi, aynan ikkinchi jahon urushining ta'siri va undan keyingi qurollanish poygasining avj olganligi bundan tashqari ishlab chiqarishning ko'payganligi, tabiiy energiya manbalaridan nooqilona foydalanishning ortganligi hozirgi kunga kelib insoniyatni atrof-muhit bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majbur qilmoqda.

Аннотация: В данной статье описывается значение экологического образования и воспитания населения и молодежи в условиях чистой окружающей среды, улучшения экологической ситуации, охраны окружающей среды, экологической культуры. При этом отмечается роль и значение правовой классификации науки об окружающей среде в улучшении окружающей среды и проживания в ней. Обеспечение права человека жить в чистой окружающей среде является сегодня одним из важнейших вопросов. Причина в том, что последствия Второй мировой войны и эскалация гонки вооружений после нее, помимо роста производства, увеличения неразумного использования природных источников энергии, заставляют человечество бережно относиться к окружающей среде.